



Buyuk o‘zbek yo‘li

ZIYOI BIRLASHSA,
MILLAT BIRLASHAR

Yaqinda mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligiga bag‘ishlab Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazida “Ma’naviyat gurgungi” tashkil etildi. Tadbirda yurtimizning ko‘zga ko‘ringan madaniyat va san’at arboblari, shoir, yozuvchi, jurnalist va olimlari qatnashdi. Gurung juda maroqli, mazmunli o‘tdi. Ziyolilarimizning mamlakat taraqqiyoti, jamiyat farovonligi, inson, uning erkinliklari yo‘lidagi islohotlar tahliliga doir suhbatlari, ayrim masalalar bo‘yicha asosli bahslarining bevosita guvohi bo‘lib, to‘g‘risi, juda quvondim.

Bunday ijodiy suhbatlar nafaqat diydorlashuv tarzida, balki sohada yig‘ilib qolgan muammolarni hal etish, taraqqiyotimizning yangi, istiqbolli yo‘llarini izlab topishda juda muhim. Tarixchi bo‘lganim uchun ana shu yig‘indan so‘ng yaqin tariximiz, sobiq mustabid tuzumi sharoitida o‘zbek ziyolilariga nisbatan yuritilgan siyosat, har qadamda ularni ta’qib qilishdan iborat munosabatni tahlil etishga urindim.

Mustabid tuzum maddohlari ziyolilarni “dushman tabaqa” sifatida quvg‘inga olib, ular faoliyatidan har qadamda “siyosiy-mafkuraviy buzg‘unchilik elementlari”ni qidirdi. “Milliylilik”, “milliy o‘zlik”, “o‘zbek”,

“milliy madaniyat” kabi so‘zlarni tilga olganlar asta-sekin maxsus organlarning “qora ro‘yxati”ga kiritildi, keyinchalik qatag‘on qilindi.

Haqiqatni aytganda, mustabid tuzum yillari tom ma’noda milliy ziyolilarimiz uchun og‘ir davrlar bo‘ldi. Adolatni istash, to‘g‘ri gapni gapirish, milliy manfaatni himoya qilish, hattoki ajdodlar ruhini shod etish kabi azaliy qadriyatlar oyoqosti qilindi. Ziyolilar tomonidan yaratilgan har bir asar shubha ostiga olindi, ming chig‘iriqdan o‘tkazilib, g‘oyaviy-siyosiy andozalar orqali tahlil etildi.

▶ Davomi 3-betda



Bugunning gapi

BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida O‘zbekiston so‘nggi yillarda tinchlikparvarlik, savdo-iqtisodiy, xalqaro muloqotlar sohasida faol ishtirokchiga aylanganiga dunyo hamjamiyati yana bir bor guvoh bo‘ldi.

TINCHLIK, DO‘STLIK
VA MA’RIFAT SARI

Prezidentimiz BMT minbarida turib: “Yangi O‘zbekiston barcha davlatlar bilan o‘zaro hamjihatlik, ochiq muloqot va yaqin sheriklik tarafdoridir. Biz xalqlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash, umumbashariy maqsadlarni ro‘yobga chiqarish yo‘lida o‘z hissamizni qo‘shishga doim tayyormiz”, dedi.

Davlatimiz rahbari ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o‘sib kelayotgan yosh avlod qo‘lida ekani, farzandlarimizning qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm hamda do‘stlik, o‘zaro ishonch va hurmat kabi olijanob g‘oyalarni singdirish dolzarb vazifalar sirasiga kirishini ta’kidlab, bu borada jahon yoshlarining tinchlik sari harakatini ta’sis etish va uning qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish taklifini ilgari surdi.

Shu bilan birga, islom ma’rifati g‘oyalarni chuqur o‘rganish va dunyoga targ‘ib etish bo‘yicha sa’y-harakatlarimizni faol davom ettirishimizni qayd etib, yaqin oylarda yurtimizda Islom sivilizatsiyasi markazi ochilishini ma’lum qildi.



Buyuk ajdodlarimiz, mutafakkir allomalar Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiyning boy ma’naviy va ilmiy merosining alohida taqdimotini BMTda o‘tkazish rejalashtirilgani quvonarli xabar bo‘ldi.

▶ Davomi 2-betda



Xalqaro hamkorlik

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA
va MEDIABOKUDA II OZARBAYJON — O‘ZBEKISTON
MEDIAFORUMI O‘TKAZILDI

Davlatimiz rahbarining 2023-yil avgustda Ozarbayjonga davlat tashrifi doirasidagi oliy darajali muzokaralar yakunida imzolangan “yo‘l xaritasi”ga muvofiq, Bokuda “Raqamli transformatsiya va media” mavzusidagi II Ozarbayjon — O‘zbekiston mediaforumi bo‘lib o‘tdi.

II AZƏRBAYCAN – ÖZBƏKİSTAN MEDIA FORUMU
“RƏQƏMSAL TRANSFORMASIYA VƏ MEDIA”

28 sentyabr – 1 oktyabr 2025-ci il

Birinci mediaforum o‘tgan yili sentabr oyida Toshkentda “Raqamli asrda haqiqatni izlab: dezinformatsiyaga qarshi kurashish” mavzusida o‘tkazilgan edi. O‘shanda ikki davlat o‘rtasida media sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish, tajriba almashish, raqamli

yangilanish jarayonlariga moslashish, dezinformatsiyaga qarshi samarali choralar qo‘llash va axborot sohasida intellektual hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

▶ Davomi 4-betda



Munosabat

Odamlarning hayot sifati va mazmuni, avvalo, mahallada istiqomat qilayotgan aholi kayfiyati, kundalik turmush tarzi va o‘zaro munosabatlarida o‘z ifodasini topadi. Prezidentimiz hududlarga tashrifi chog‘ida, albatta, mahallalarda ham bo‘lishining sabablaridan biri shunda.

Yangi O‘zbekistonda islohotlar boshlanganda, Namangan viloyatidagi eng og‘riqli muammolardan biri aholi, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta’minlash masalasi edi. Chunki bu hududda Toshkent, Navoiy yoki Qashqadaryodagi kabi yirik sanoat tarmoqlari shakllanmagan, asosiy salohiyat esa tadbirkorlikka tayangan. Shu bois, drayver soha sifatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratildi. Bu tanlov tasodifiy emasdi. Mehnatsevarlik, tadbirkorlik, hunarmandlik namanganliklarning qon-qoniga singib ketgan, ularning turmush tarzi va mentalitetiga mos. Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, bugun viloyatdagi ijobiy o‘zgarishlar, yangi ishga tushgan korxonalarni ko‘rgan kishi Namanganda to‘g‘ri yo‘l tanlanganiga yana bir marta amin bo‘ladi.

Haqiqatan, qisqa vaqt ichida katta-katta natijalar ko‘zga tashlanadi, kambag‘allik

HAR DOIM XALQ ORASIDA,
HAR DOIM XALQ BILAN HAMNAFAS!

darajasi 2,5 barobar kamaydi, so‘nggi sakkiz yilda hududga 7 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etildi. 8 mingga yaqin yangi korxona ishga tushdi, eksport mahsulotlari turi 2 karra oshdi. Aholining o‘rtacha daromadi 3

barobar o‘tdi, mehnatga layoqatli aholining 82 foizi tadbirkorlik orqali daromad topmoqda.

Bu raqamlar Namanganning yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ygani anglatadi. Viloyatda tadbirkorlik nafaqat

iqtsodiy yuksalish, balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida ijobiy o‘zgarishlarni ta’minlovchi asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylandi.

▶ Davomi 2-betda



Chorvachilik

UCH YILDA YUZ MING BOSHGA YETADI

QASHQADARYOLIK FERMERLAR
MO‘G‘ULISTONDAN KO‘PROQ QO‘Y OLIB KELIB,
TEZROQ KO‘PAYTIRMOQCHI

Har kungi odatini kanda qilmagan Shokir ota guzarga yo‘l olarkan, nimadir yodidan ko‘tarilganek bo‘ldi. Ortiga qaytdi. Darvozaga yetguniga qadar ham eslay olmadi. Bir oz to‘xtadi. “Qarilik qursin. Ha-ya...”, deya yuzi yorishdi. Ichkariga kirib, tez qaytib chiqarkan, o‘zicha nimalarnidir hisoblar edi. Bu holat mahalla guzariga yetgunicha davom etdi. U yerda uch-to‘rt tengquri suhbat qurib o‘tirgan ekan. Salomlashib, bir chetga joylashdi. Xayoli esa boshqa yoqda edi.

Bu odat Shokir otada bugun paydo bo‘lgani yo‘q. Oliygo‘hni tamomlab, hisobchi bo‘lib ish boshlagandan buyon ahvol shu. Qirq yil shu sohada mehnat qildi. Mana, pensiyaga chiqqaniga ham o‘n yilcha bo‘ldi. Hanuz hisobda adashmaslikka intiladi. Pensiya olsa, har bir so‘mini chamalab taqsimlaydi. Hisobni yo‘qotmay, xarajat qilishga urinadi. Lekin uch-to‘rt oydirki, pensiya puli oy oxirlamay tugab qol-yapti. Savil, go‘shning narxi ko‘tarildi-yu, pulidan baraka qochganday bo‘ldi. Qancha tejamkorlik qilmasin, foydasi bo‘lmayapti. Shu payt yonidagilar go‘shning narxi haqida gap ochgani xayolini bo‘ldi. Diqqatini gurgungga qaratdi.

— Tunov kuni bozorga tushgandim. Qo‘y go‘shni olmoqchi edim. Narxini eshitib, hayron qoldim. Kilosi 80 ming so‘m ekan. Nega buncha arzonligini so‘rasam, “Boshqa davlatdan olib kelingan”, deyishdi. Olishga ikkilandim, — deya oqsoqol atrofiga qarab, izoh so‘ragan bo‘ldi.

▶ Davomi 4-betda



Dil izhori



G‘URURLANDIM, HAVAS QILDIM

6

Munosabat



Boshlanishi 1-betda

Tashrifning shov-shuvli voqeasi

Tashrifning shov-shuvli, qolaversa, hamma mas’ullarni dovdiratib, shoshirib qo’ygan voqeasi, shubhasiz, Prezidentimizning kutilmaganda Norin tumanidagi Sho’riq mahallasiga borгани bo’ldi. Prezident kortey mahallaning abgor holatga kelib qolgan madaniyat uyi binosi qarshisida to’xtaganida, ochig’i, nima bo’layotganini anglolmadik.

Namanganning ko’plab go’zal go’shalari, ko’rkam binoli qishloqlari bo’la turib, davlatimiz rahbari aynan tashlandiq, ahvoli og’ir holatdagi mahallaga kelgani bizi hayratga soldi.

Ha, davlatimiz rahbarining nazaridan hech narsa chetda qolmasligiga, yurtimizning har bir qarich yerini besh qo’lday bilishiga yana bir bor amin bo’ldik. Bizning ich-etimizni kemirayotgan savolga o’zi javob berdi: “Bu hududga hech kimga bildirmay, mahalliy hokimiyatga ham aytmay, odam yuborib, og’ir infratuzilmali mahallani aniqlashtirganman va holatni haqqoniy tahlil qilganman”.

Madaniyat uyida faollar bilan bo’lgan suhbat esa Prezidentimizning xalq dardiga, turmushiga nechog’liq e’tiborli ekanidan dalolatdir. Bu kutilmagan voqea O’zbekiston mahallalari uyushmasi va uning tizimidagi xodimlar, mahalla raislari uchun ham dalda, ham “mahorat darsi” bo’ldi. Bir so’z bilan aytganda, hammamiz uyg’ondik.

Bundan buyog’iga Sho’riqda hamma narsa — nomidan tortib, infratuzilmasigacha o’zgarishi, bu yerga shahar muhitini olib kirish bo’yicha aniq maqsadli ishlar amalga oshirilishi alohida qayd etildi.

Jumladan, zamonaviy mahalla guzari va sayilgoz barpo etish, bolalar va sport maydonchalari, kutubxona, kasb va til o’rgatish markazi, bank shoxobchasi tashkil qilish, maktab va bog’chalarni davlat investitsiya dasturi doirasida kapital ta’mirlash, ko’chalarni asfalt qilib, manzarali va mevali daraxtlar, gul ko’chatlari ekish, eskirgan va hosildorligi past bog’larni to’liq yangilash bo’yicha aniq ko’rsatma va topshiriqlar berildi.

Shu kunlarda Sho’riq mahallasini Yangi Namangan mahallasiga aylantirish jarayoni shiddat bilan davom etmoqda. Aniq reja ishlab chiqish yuzasidan mutaxassislar, aholi vakillarining takliflari olindi. Barcha ishlarni muvofiqlashtirish bo’yicha viloyat shtabi tashkil etildi.



Muzaffarxon JONIYEV, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori, tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori

Boshlanishi 1-betda

Ushbu tashabbus, avvalo, O’zbekistonning jahon hamjamiyati oldidagi ma’naviy-ilmiy missiyasini namoyon etadi. Zero, bugunga qadar O’zbekiston buyuk allomalarimiz ilmiy-ma’rifiy merosini o’rganish hamda uni musulmon olami va jahon ilmiy jamoatchiligi orasida targ’ib qilish borasida munosib o’rin egalladi. Xususan, bu yo’nalishda Imom Termiziy, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazlari hamda Islom sivilizatsiyasi markazi tarixiy merosni tizimli va chuqur ilmiy tahlil qilish, ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatini ochib berish, xalqaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlash va sivilizatsiyalararo muloqotni kuchaytirishda strategik ahamiyatga ega maydon vazifasini o’tamoqda. Chunki ushbu allomalr asarlarida islom ma’rifatiga xos bag’rikenglik, adolat, insonparvarlik va tinchlik g’oyalari mujassam. Dunyoda turli ziddiyatlar, radikal qarashlar va ekstremistik tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi sharoitida ana shu g’oyalarni keng targ’ib etish jahon hamjamiyati uchun g’oyat dolzarb ahamiyatga ega.

Shuningdek, BMT minbarida turib allomalr merosini taqdim etish nafaqat O’zbekistonning ma’naviy merosini jahonga tanitish, balki sivilizatsiyalar o’rtasidagi muloqot va hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan harakattir. Bu tashabbus orqali O’zbekiston islom sivilizatsiyasi boyliklarini butun insoniyat umumiy merosining ajralmas qismi sifatida namoyon etmoqda.



Qahramon QURONBOYEV, O’zbekiston mahallalari uyushmasi raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

Umuman, Namangan viloyatining Kosonsoy va Norin tumanlariga 100 milliard so’m dan, qolgan tumanlarning ikkitadan “og’ir”

Yurtimizda aholini umummilliy ro’yxatga olish 1989-yili o’tkazilgan. Oradan 37 yil o’tib, 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralga qadar O’zbekistonda aholini ro’yxatga olish rejalashtirilgan. Uning dastlabki 17 kuni internet orqali, keyingi bir oy mobaynida esa “mahalla yetiligi” ishtirokida uyma-uy yurib amalga oshirilishi belgilangan.

Davlatimiz rahbari Namangan viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo’yicha o’tkazilgan yig’ilishda shu haqda to’xtalib, BMT tomonidan O’zbekistonda aholini ro’yxatga olish borasida maxsus hujjat qabul qilinganini, mahalla tizimi borligi uchun ham juda katta yengillik berilganini qayd etdi.

Uch oydan buyon ushbu masala bo’yicha



mahallasiga esa 5 milliard so’m dan yo’naltirilib, ularni mehnatda namunali, hayoti farovon, tadbirkorlikda yetakchi hududga aylantirish choralari ko’rilishi belgilandi.

Namanganda har yili an’anaviy tarzda xalqaro gullar festivali o’tkaziladi. Suhbat davomida Prezidentimiz tomonidan keyingi yildan boshlab dastlab viloyatdagi 754 ta mahallada “gul bayrami”ni tashkil etish tashabbusi ilgari surildi. Bu orqali barcha mahallalarni gulzorga aylantirishimiz mumkin. O’z navbatida, tanlovda g’olib bo’lgan mahallaga biz ham

elektromobil sovg’a qilishni rejalashtiryapmiz. Shuningdek, har bitta mahallaga o’ziga xos mevali va manzarali daraxtlar ekishga kelishib oldik. Hozir yuqoridagi tashabbuslarni amalga oshirish bo’yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqyapmiz.

Dunyo tan olgan tizim

Yurtimizda aholini umummilliy ro’yxatga olish 1989-yili o’tkazilgan. Oradan 37 yil o’tib, 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralga qadar O’zbekistonda aholini ro’yxatga olish rejalashtirilgan. Uning dastlabki 17 kuni internet orqali, keyingi bir oy mobaynida esa “mahalla yetiligi” ishtirokida uyma-uy yurib amalga oshirilishi belgilangan.

Davlatimiz rahbari Namangan viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo’yicha o’tkazilgan yig’ilishda shu haqda to’xtalib, BMT tomonidan O’zbekistonda aholini ro’yxatga olish borasida maxsus hujjat qabul qilinganini, mahalla tizimi borligi uchun ham juda katta yengillik berilganini qayd etdi.

Uch oydan buyon ushbu masala bo’yicha



Milliy statistika qo’mitasi, BMT institutlari, jumladan, Aholishunoslik jamg’armasi, Oziq-ovqat va qishloq xo’jaligi tashkiloti bilan hamkorlikda ishlayapmiz.

Odatda aholini ro’yxatga olish uchun 50 ming odam jalb etilishi kerak va shuncha planshet zarur. Mahalla institutining o’zida 57 ming xodim ishlaydi va ularning qo’lida shuncha planshet bor. Tayyor tizim, tayyor mexanizm mavjud. “Mahalla yetiligi” faoliyati yo’lga qo’yilgani uchun buni ortiqcha mablag’ va ovoragarchiliksiz amalga oshirish rejalashtirilgan. Shu bois, bizda aholini



ro’yxatga olish ishlariga xalqaro tashkilotlar xayrixohlik bildirmoqda. Boshqacha aytganda, bu yangi mahalla tizimini dunyo hamjamiyati yana bir bor qat’iy tan olganini ko’rsatadi. Shubhasiz, aholini ro’yxatdan o’tkazish tarixiy jarayon, albatta, mahalla tizimi xodimlariga alohida mas’uliyat yuklaydi. O’ylaymanki, buni yorug’ yuz bilan uddalaymiz.

og’riqni yashirmay, uni davolash yo’llarini izlash kerak

Adolatli jamiyatda hech bir muammo berkitilmaydi. O’z nomi bilan boricha aytiladi, tan olinadi. Odamlar shunga o’rganishi, og’riqni yashirmay, uni davolash yo’llarini izlashi kerak. Faqat biz kabi katta-kichik amaldorlar uzoq yillar davomida ayrim muammolarni aytishdan, ro’sh ko’chirdik. Prezidentimiz bu masalada ham tom ma’noda jasorat ko’rsatib, o’zi namuna bo’ldi. Mamlakatimizda kambag’allik mavjud ekani, bu muammodan ko’z yumib bo’lmasiligi, davlat uni hal qilishga mas’ulligini baralla, ro’y-rost gapirdi. Alohida vazirlik tuzilib, juda katta dasturlar shiddat bilan amalga oshirilmog’da.

Aynan tashrifning ertasi kuni Prezidentimiz an’anaviy tarzda o’tkazib kelinayotgan “Kambag’allikdan farovonlik sari” III xalqaro forumida ishtirok etib, nutq so’zladi. Davlatimiz

rahbari dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan nufuzli mehmonlar oldidagi chiqishida gapni, avvalo, mahalladan boshladi: “Jamiyatning eng quyi bo’g’inigacha tushib, “mahallabay” ishlash tizimini yo’lga qo’yanimiz o’zini har tomonlama oqladi. Har bir xonadon, har bir oila bilan individual reja asosida ishlab, daromadni oshirish uchun yetarli resurs ajratdik.

Mahallalarni obod qilish, odamlar hayotini yaxshilash va tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishga har yili 2,5-3 milliard dollar yo’naltiryapmiz”.

Shuningdek, “Kambag’allikdan farovonlik sari” dasturining maqsadi, mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida so’z yuritib, hududlarda infratuzilmani yaxshilash, odamlarga yashash uchun qulay sharoitlar yaratish ko’p o’lchovli kambag’allikni qisqartirishda muhim qadam bo’lishiga alohida urg’u berdi.

Shu maqsadda qariyb 3,5 million aholi yashaydigan, sharoiti og’ir mingta mahallada infratuzilmani yaxshilash bo’yicha tegishli ishlar amalga oshirilayotgani, natijada shu yilning o’zida 470 ming xonadonga qarashli tomorqaga suv borgan, yana 790 ming xonadonda elektr energiyasi ta’minoti yaxshilangani alohida qayd etildi.

Davlatimiz rahbari biz uchun ham katta yangilik — yangi tajriba haqida so’z yuritdi.

Bugunning gapi

TINCHLIK, DO’SSTLIK VA MA’RIFAT SARI



Muzaffarxon JONIYEV, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori, tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori

Boshlanishi 1-betda

Ushbu tashabbus, avvalo, O’zbekistonning jahon hamjamiyati oldidagi ma’naviy-ilmiy missiyasini namoyon etadi. Zero, bugunga qadar O’zbekiston buyuk allomalarimiz ilmiy-ma’rifiy merosini o’rganish hamda uni musulmon olami va jahon ilmiy jamoatchiligi orasida targ’ib qilish borasida munosib o’rin egalladi. Xususan, bu yo’nalishda Imom Termiziy, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazlari hamda Islom sivilizatsiyasi markazi tarixiy merosni tizimli va chuqur ilmiy tahlil qilish, ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatini ochib berish, xalqaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlash va sivilizatsiyalararo muloqotni kuchaytirishda strategik ahamiyatga ega maydon vazifasini o’tamoqda. Chunki ushbu allomalr asarlarida islom ma’rifatiga xos bag’rikenglik, adolat, insonparvarlik va tinchlik g’oyalari mujassam. Dunyoda turli ziddiyatlar, radikal qarashlar va ekstremistik tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi sharoitida ana shu g’oyalarni keng targ’ib etish jahon hamjamiyati uchun g’oyat dolzarb ahamiyatga ega.

Shuningdek, BMT minbarida turib allomalr merosini taqdim etish nafaqat O’zbekistonning ma’naviy merosini jahonga tanitish, balki sivilizatsiyalar o’rtasidagi muloqot va hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan harakattir. Bu tashabbus orqali O’zbekiston islom sivilizatsiyasi boyliklarini butun insoniyat umumiy merosining ajralmas qismi sifatida namoyon etmoqda.

bajarish bo’yicha samarali ishlar qilinayotgani ta’kidlanib, BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi bilan hamkorlikda Reabilitatsiya va qayta integratsiya masalalari bo’yicha mintaqaviy kengashni Xalqaro kompetensiyalar markaziga aylantirish taklif etildi.

Bu tuzilma muammoli hududlardan qaytarilgan shaxslarni tinch hayotga moslashtirish bo’yicha tajriba almashish uchun muhim platforma bo’lib xizmat qilishi, bundan tashqari, mamlakatimiz Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasining mintaqaviy ofisini O’zbekistonda ochish uchun zarur sharoit yaratishga tayyor ekani bayon qilindi.

Sessiyada global xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash, Barqaror rivojlanish maqsadlariga

faqat kuch ishlatish, jazo choralarini ko’rish yoki huquqiy tartib-taomillar bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, u keng qamrovli, tizimli va kompleks chora-tadbirlar asosida amalga oshiriladi.

Birinchii navbatda, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya orqali radikal g’oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda diniy sof ta’limotni buzib ko’rsatuvchi va zo’ravonlikni oqlaydigan qarashlarga qarshi islom ma’rifati, bag’rikenglik, insonparvarlik va tinchlik g’oyalari ustun qo’yiladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy qo’llab-quvvatlash choralari insonparvar yondashuvning asosiy yo’nalishlaridan biridir. Muammoli

Uchinchidan, iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga ham radikalizmning oldini olishda hal qiluvchi omillardan biri sifatida qaralmoqda. Jumladan, odamlarni ish bilan ta’minlash, kasb-hunarga o’qitish, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish radikal muhit ta’siridan chiqib kelgan shaxslar uchun yangi imkoniyat eshiklarini ochmoqda. Bu nafaqat ularning iqtisodiy barqarorligini ta’minlaydi, balki ijtimoiy adolat va ishonch hissini ham mustahkamlaydi.

Amaliy natijalarga ko’ra, yangi O’zbekistondagi insonparvar yondashuv radikal g’oyalar ta’siriga tushgan shaxslarning qayta tarbiyalanishi va sog’lom hayot tarziga qaytishda yuqori samara beryapti. Bu tajriba hozir xalqaro miqyosda ham qiziqish uyg’otib, BMT va qator nufuzli tashkilotlar tomonidan o’rganilmoqda va qo’llab-quvvatlanmoqda.

O’zbekistonning BMT bilan hamkorligi so’nggi yillarda mutlaqo yangi darajaga ko’tarildi. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida muntazam nutq so’zlaydi. Xususan, keyingi yillarda o’tkazilgan qator sessiyalardagi nutqi mintaqaviy xavfsizlik, iqlim o’zgarishiga qarshi kurashish, inson huquqlarini himoya qilish va sivilizatsiyalararo muloqotni rivojlantirishga qaratilgan muhim siyosiy bayonotlarga aylandi.

Mamlakatimizdagi diniy-ma’rifiy islohotlar inson manfaatlarini ko’zlaydi. Bu davlatimiz rahbarining joriy yil 21-apreldagi “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmonida ham o’z aksini topgan.

O’zbekistonda fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasida belgilangan vazifalarni ro’yogga chiqarish, diniy-ma’rifiy sohadagi egzu g’oya va tashabbuslarni xalq manfaatlaridan kelib chiqib izchil davom ettirish hujjatning mazmun-mohiyatini tashkil qiladi.

Prezidentimizning ochiq va pragmatik tashqi siyosati, uzoq va yaqin davlatlar bilan o’zaro munosabatlarni mustahkamlash borasidagi tashabbuslari tufayli so’nggi yillarda

Ta’kidlanishicha, kelgusi yili mahallalarda infratuzilmani yaxshilash, ish o’rinlarini ko’paytirish, tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlashga yana 400 million dollar ajratilishi, bunda 32 ta tuman va ijtimoiy sharoiti og’ir 328 ta mahallani tanlab, ularni rivojlantirish bo’yicha alohida dastur qabul qilinishi belgilandi. Shuningdek, 810 ta mahallada suv, kanalizatsiya, yo’l, maktab va bog’cha qurish bo’yicha 1,3 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilishi ko’zda tutilgan.

Xalqaro forum davomida yana bir muhim yangilik haqida so’z yuritildi. 2030-yilga borib, xalqaro mezonlarga ko’ra O’zbekistonda kambag’alikka to’liq barham berish uchun barcha imkoniyatlar borligiga alohida e’tibor qaratildi.

Shu o’rinda diqqatingizni yana bir masalaga qaratmoqchi edim. Xalqaro forumda so’zga chiqqan Islom taraqqiyot banki prezidenti Muhammad bin Sulaymon al-Jassir o’z gapini quyidagi fikr-mulohazalar bilan boshladi: “Avvalo, janob Prezident, Sizing nutqingizdan so’ng so’zga chiqish men uchun ancha mas’uliyatli va murakkab bo’lib qoldi. Biz tinglangan nutq iqtisodiy rejalashtirishning chinakam durdonasi bo’ldi. Tabriklayman, O’zbekiston bunga munosibdir. Sizga o’z minnatdorligimni bildiraman.

Ushbu forum amaliy yechimlar va yanada mustahkam hamkorlik uchun katalizatorga aylanib, barchamizning yanada inklyuziv va farovon kelajak barpo etish yo’lidagi umumiy maqsadimizni ilgari surmoqda”.

Shubhasiz, bu e’tirofning zamirida davlatimiz rahbarining uzoqni ko’zlagan islohotlari va sa’y-harakatlari, shu bilan birga, xalqimizning fidokorona va halol mehnati mujassam.

Insonning aql-zakovati va fazilati qadrlansa

Bir paytlari o’rta asrlarda yashagan buyuk faylasuf, mutafakkir Abu Nasr Forobiyning “Inson — oliy maqsadga erishmoq uchun yaratilgan zot. Uning aqli va fazilati qadrlansa, jamiyat taraqqiy etadi”, degan fikrini o’qigandim. Davlatimiz rahbarining Namangan viloyatiga tashrifi davomidagi voqea-hodisalarni kuzatgan har bir kishi yangi O’zbekiston ham ana shu egzu g’oyaga hamohang tarzda barpo etilayotganiga yana bir bor amin bo’lishi shubhasiz. Zero, tashrif namaganliklarga xos tadbirkorlik va hunarmandlik bobidagi qobiliyatlarini, yurtni gulzorga, obod maskanga aylantirish yo’nalishidagi sa’y-harakatlarini moddiy va ma’naviy jihatdan qo’llab-quvvatlash, ular uchun yangi-yangi imkoniyatlar eshigini ochishga qaratilgani bilan ham ahamiyatli bo’ldi. Demak, viloyat aholisi ana shu e’tibor va g’amxo’rlikka yarasha bundan-da farovon yashashga intilmoqda.

Ayniqsa, biz, mahalla uyushmasi xodimlari uchun bu tashrif unutilmas safoq bo’ldi. Mavjud muammolarni bevosita joylarga chiqib o’rganish, biror mayda masalani ham e’tibordan chetda qoldirmaslik, aholi kundalik hayotini o’z ko’zi bilan ko’rib, chuqur tahlil qilgan holda aniq taklif va chora-tadbirlar ishlab chiqishga o’rgatdi.

Bir so’z bilan aytganda, Prezidentimiz xalq bilan birga, yingdan dard-u tashvishlarini chuqur his qilib, ularni hal etishda aniq yo’l va mexanizmlarni belgilab bermoqda. Bu esa yangi O’zbekiston taraqqiyotining asosiy kafolati bo’lib xizmat qiladi.

O’zbekistonning do’stlari, xayrixohlari xalqaro maydonda ham tobora ko’payib bormoqda. Qo’shni, yaqin va uzoq mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar mutlaqo yangi — sog’lom va teng sheriklik asosida yo’lga qo’yildi. Xalqaro hamkorlikning yangi yo’nalishlari, mexanizmlari joriy etilmog’da.

Shuningdek, O’zbekistonda fuqarolarning vijdon va diniy erkinligi sohasidagi konstitutsion huquqlarini ta’minlash, jamiyatda diniy bag’rikenglik va dinlarning do’sstlik, hamkorlik g’oyalarni mustahkamlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu holatni nafaqat yurtimiz fuqarolari, balki jahonning turli mamlakatlaridan kelgan mehmonlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari ham e’tirof etmoqda.

Yaqin tarixda ajdodlarimiz Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Imom Nasafiy va So’fi Olloyordek ulug’ zotlarning boy ma’naviy merosi bilan erkin tanishish imkoniga ega emas edik. Bugun esa diniy-ma’rifiy yo’nalishda ajdodlarimiz yozgan yuzlab kitoblar o’zbek tilida, shahrlari bilan yurtdoshlarimizga tortiq qilinmoqda. Yoshlarimiz ushbu islohotlarga befarq bo’lmay, ilmiy va amaliy faoliyati bilan elimiz farovonligi yo’lida tinmay mehnat qilishi, ma’rifatparvarlik, xalqparvarlik, vatandashlik kabi tushunchalarning mohiyatini anglashi zarur.

Yangi O’zbekistonning BMT minbarida yangrayotgan tashabbuslari, avvalo, xalqimiz asrlar davomida shakllantirgan ma’naviy-ruhiy merosga tayanadi. Buyuk ajdodlarimiz — Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy va boshqa ulug’ zotlar asarlarida mujassam bo’lgan bag’rikenglik, adolat, insonparvarlik va tinchlik g’oyalari bugun ham jahon hamjamiyati uchun ulkan ahamiyatga ega. Ushbu merosni BMT kabi nufuzli tashkilot doirasida keng targ’ib qilish O’zbekistonning ma’naviy diplomatiyasi, tinchlikparvar siyosatining yorqin ifodasidir.

Shu bilan birga, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda insonparvar yondashuvning ustuvorligi mamlakatimiz tajribasining o’ziga xos jihatlidir. Bu yo’l ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va iqtisodiy imkoniyatlar yaratish bilan uyg’unlashib, radikal g’oyalar ta’siriga tushgan shaxslarni sog’lom hayotga qaytarishda yaxshi natijalar bermoqda. O’zbekiston BMT maydonida ilgari surayotgan tashabbuslari bilan nafaqat mintaqaviy barqarorlikka, balki global xavfsizlik va ma’naviy taraqqiyotga ham munosib hissa qo’shmoqda. Shu ma’noda, yangi O’zbekistonning bugungi izchil siyosati insoniyat tarixida tinchlik, do’sstlik va ma’rifat sari da’vat sifatida munosib bahosini olayotganini alohida ta’kidlash joiz.



Abduxalil MAVRULOV,
tarix fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Esiz, o'sha davrlarda davlatimiz, millatimiz tarixiga, milliy o'zlik va mentalitetimizga, buyuk bobolarimiz ijodiga bag'ishlangan qanchadan qancha asarlar atayin yo'q qilindi, mualliflari quvg'inga uchradi. Eng yomoni, e'tiqodi sust, qiyinchiliklar oldida esankiragan, sovet davlatining arzimagan mukofotlari oldida milliy manfaatlarni inkor etgan ayrim manqurtlar paydo bo'lishi jamiyatda jiddiy ijtimoiy bo'linishni yuzaga keltirdi. Oqibatda ma'naviy tanazzul yuz berdi.

Yana bir gap. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlangan jahoniy ma'naviy buzilishlar o'zining o'g'ir sabiyi ta'sirini hali ham ko'rsatib kelmoqda.

“Eng rivojlangan mamlakatlar ham barham bera olmayotgan ma'naviy tanazzul balosi aynan o'sha, bundan 60-70 yil ilgari ko'plab tanikli olimlar tomonidan ishlab chiqilgan, hayotga zudlik bilan tatbiq etilgan va insoniyatni ma'naviy g'ariblashtirishga olib kelgan ma'naviyatsizlik va g'oyasizlik texnologiyalarining natijasi ekani bugun ko'pchilikka ayon, — deb yozadi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev. — Ammo o'tgan asrning 70-yillariga kelib ushbu tamoyillar ustuvor qiyofa kasb etib, ular asosidagi texnologiyalar jamiyat hayoti va odamlar tafakkurini buzib bo'lgan, ya'ni “poyezd ketib bo'lgan”, jamiyat, ayniqsa, yoshlar o'zargan, ularning ongi va tafakkurlari buzg'unchi g'oyalar ta'siri o'rtnashib qolgan edi. Oqibati esa ma'lum”.

Endi-chi, endi vaziyat mutlaqo o'zgardi. Mustaqillik tufayli, ayniqsa, keyingi sakkiz-to'qqiz yil ichida milliy ziyolilarimizning ko'kragiga shabada tegdi, tom ma'nodagi ijod va yaratish erkinligiga erishila boshlandi. Agar sovet davrida rasmiy hokimiyat ziyolilar timsolida o'zining “ashaddiy dushmani”ni ko'rgan bo'lsa, keyingi yillarda bu toifa kishilar jamiyatda to'planib qolgan turli muammolarni hal etish, uning samarali yo'llarini topishga jiddiy kirishgan, mamlakat farovonligi yo'liga falo harakat qiluvchi ijtimoiy tabaqa sifatida tanilmoqda.

Boshqacha aytganda, bugungi ziyolilar yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessansni barpo etishning ilmiy-konseptual va adabiy-badiiy poydevorini qurishga bel bog'lagan kishilar sifatida tan olinmoqda.

Yangi O'zbekiston rahbariyati bugun ziyolilarga millat gullari, millat fidoyilari o'laroq qaramoqda, jamiyatda to'planib qolgan muammolarni bartaraf etish, kuchayibborayotgan ichki va tashqi tahdidlarni zararsizlantirishda ularning fikrlariga alohida e'tibor bermoqda. Bejiz Prezidentimiz: “**Tarixdan ma'lum, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar**”¹, demagan.

Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar bugungi kunda ham tobora kuchayib bormoqda. Globallashuv tufayli milliy o'zlikka qarshi qaratilgan tahdidlar, o'z maqsadiga boshqa davlatlar hisobiga erishishdan iborat geosiyosiy manfaatlar barcha mintaqalar va davlatlar qatori yurtimizga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bundan aslo ko'z yumib bo'lmaydi.

Ana shu tahdidlaru g'arazli niyatlarga burkangan, faqat o'zini o'ylagan egoistik manfaatlar har bir davlatning ziyolilari, ilm-fan arboblari, madaniyat va ma'naviyat fidoyilardan mavjud tahdidlarga jiddiy munosabatda bo'lishni talab etmoqda. Shu ma'noda, mamlakatimizda ziyolilarning ijtimoiy-mafkuraviy faolligini oshirish, dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarni sergaklik bilan tahlil qilish, fuqarolarimizni turli ichki va tashqi tahdidlardan ogohlantirib turishdan iborat vazifalarni sidqidildan bajarish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur vazifalarning o'ta jiddiyligiga diqqat qaratgan davlatimiz rahbari ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash choralari ni ko'rmoqda. Afsuski, yaqin-yaqingacha ham ko'p ming sonli ziyolilarimizni qo'llab-quvvatlashning aniq rejalashtirilgan tizimi shakllanmagan edi. Mamlakat rahbarining shaxsan tashabbusi bilan ziyolilar ustidan homiylik harakati keng tus ola boshladi.

Ayniqsa, 2017-yil 3-avgustda davlatimiz rahbarining ziyolilar, madaniyat, san'at

xodimlari bilan o'tkazgan tarixiy uchrashuvi bu borada katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'shanda yurtimizdagi ijodiy tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 70 ga yaqin “Do'stlar klubi” tashkil etilgan edi. Qisqa muddatda bu yo'nalishda 100 milliard so'mga yaqin homiylik yordami ko'rsatildi. Shuning hisobidan ijodiy tashkilotlar faoliyatini yanada rivojlantirish, adib va san'atkorlar, ziyolilarimizni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, yosh ziyolilar, iste'dodli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida Zomin ijodiy seminari qayta tiklanishi, ijodkor ziyolilar uchun turli shiargohlar barpo etilishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishda muayyan ahamiyat kasb etdi.

Ziyolilarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasidagi ibratli ishlar to'g'risida fikr ketganda, o'sha tarixiy yig'ilishda ijodiy ishlarga ijtimoiy buyurtma berilishi bilan bog'liq masalani alohida ta'kidlash kerak. Haqiqatan, bunday tizim yaratilishi madaniyat va san'at xodimlari, adabiyot darg'alarining xalqimizda bugun dunyoda yuz berayotgan voqealarga teran munosabatda bo'lish kayfiyati shakllanishida, jamiyatda mavjud muammolarni anglab yetish va ularni hal etish bo'yicha jamoatchilik fikrini yuzaga keltirishda muhim o'rin tutadi.

Xizmat safarlari, turli ijodiy uchrashuvlar chog'ida ba'zi ziyolilarimizning barpo etilayotgan davlat, taraqqiyotimizning eng ustuvor yo'nalishlari, “shaxs — jamiyat — davlat” tamoyili haqidagi mulohazalarini tinglab, ziyolilarimizning o'zlari bilan hali jiddiy ishlash lozimligini anglab yetaman. Gap bu yerda ayrim ziyolilarimizning bez yuqorida qayd etgan masalalar bo'yicha bilim saviyasi pastligi xususida ham emas. Gap ularni tinglab, ulardan “bilim” olayotgan yoshlar, aholining turli qatlamlari haqida ketmoqda. Taassufki, ayrim hollarda 34 yillik mustaqillik davrida, bu yillarda, ayniqsa, so'nggi 8-9 yilda qo'lg'a kirirgan yutuqlarimizni xalqimiz, shuningdek, jahon jamoatchiligi tan olib turgan bir paytda mustabid tuzumni qo'msaydiganlar ham yo'q emas.



Davlatimiz rahbari bot-bot ma'rifatli davlat, ma'rifatli jamiyat, yangi ma'naviy makon, Uchinchi Renessans, uning mamlakat va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqida kuyunib gapiradi. Ayrim paytlari milliy tariximizni yaxshi bilmaganligimiz uchun qator prinsipial masalalarda adashamiz, xato fikrlar gapirib o'quvchilarni adashtiramiz.

Afsuski, ayrim ziyolilarimiz jamiyatda o'zini tutish odobi nuqtayi nazaridan ham boshqalarga ibrat bo'la olmayapti.

Nazarimda, buning qator sabablari barga o'xshaydi. Eng avvalo, ziyolilarning mansabu martabasini oshirishga e'tibor qaratish lozim. Buning uchun Prezidentimiz barcha tashkiliy, huquqiy-me'yoriy masalalarni allaqachon hal qilib berdi. Biz ularning ayrimlari haqida avvalroq gapirgan edik. Endi gap o'zimizda, ziyolilarda qoldi desak to'g'ri bo'ladi.

Ziyolining mas'uliyati degan gap, nazariyda, muhim ahamiyatga ega. Mustaqillikning dastlabki 20-25 yili mobaynida ziyoli “paytavasiga qurt” ushgan edi. Ziyoli har qadamma jamiyatning eng past qatlami sifatida ko'rilar, ijtimoiy nufuzi juda tushib ketgandi. Shu o'rinda xalqimiz ko'nglidan chuqur joy olgan qiziqchimiz Hojiboy Tojiboyevning hangomalarini bir eslaylik. Bugun yangi O'zbekiston jamiyatida ziyoli o'zining tom ma'nodagi o'miga ega bo'ldi. Gap uning ishga mas'uliyat bilan yondashishida qolmoqda.

Xo'sh, ziyoli mas'uliyatini oshirish uchun nima qilish kerak?

Birinchidan, bugungi ziyoli o'z ustida tinimsiz ishlashi, ayniqsa, davlat va jamiyat taraqqiyotining ustuvor tamoyillari haqidagi bilimlarni mukammal bilishi lozim. Yangi O'zbekistonni barpo etishning nazariy-konseptual masalalarini bilmasdan turib, u haqida kitob yozish, spektakl, kino asarlari yaratish mumkin emas. Shu nuqtayi nazardan, ziyolining bugungi mas'uliyati uning davlat

va jamiyat qurilishi haqida bilimi saviyasiga bog'liq. Unutmashlik kerakki, haqiqiy asar uning badiiy qudrati va ijtimoiy kuchi uyg'unligidagina yaratilishi mumkin.

Ikkinchidan, ziyoli jamiyat taraqqiyoti, unda shaxslar o'rmini doimo his etib turuvchi barometr bo'lishi kerak. Gap shundaki, bugun tez rivojlanayotgan dunyoda jamiyat a'zolarining yuksak ma'naviy talablari ham ortib bormoqda. Bunday talablarni birdaniga anglash juda qiyin. Shuning uchun ziyolidan o'tkir zehn, yaxshi bilan yomonning farqini aniqlay oladigan, hayotni teran tahlil qiladigan sinchkov nigoh kerak.

Jamiyat hayotida ziyoli mas'uliyati ortib borishiga undayotgan omillardan yana biri aholi, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy-madaniy ehtiyojlari kuchayib borishi va ularni samarali qondirish bilan bog'liq. Haqiqatan, tabiiy ehtiyojlar kabi insonning ma'naviy-madaniy ehtiyojlari ham tinimsiz ortib boradi. Ziyoli mazkur ehtiyojlarni iyerarxiyasidagi muayyan tizimini, ustuvor ahamiyatga ega qadriyatlarni aniqlay olmas ekan, bundan jamiyat zarar ko'rishi mumkin.

Uchinchidan, ziyoli mas'uliyati har bir insonni ezgu maqsadlar, strategik mo'ljallar sari safarbar etishga undaydi. Bunday maqsadlar esa davlatimiz rahbarining quyidagi fikrlarida aniq-ravshan bayon etilgan: “**Biz bugun bashariyatning azaliy orzusi bo'lgan inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklari ustuvor bo'lgan, farovonlik va taraqqiyot, imkoniyatlar va ezgu niyatlarning ro'yobga chiqishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan, adolat, hamkorlik, tenglik va qonun ustuvorligi kabi demokratik tamoyillar mustahkam qaror topgan, tinchlik-totuvlik va osoyishtalik hukmron bo'lgan, barqaror rivojlanayotgan dunyo sari intilmoqdamiz**”.

Nazarimda, bugungi ziyoli xalqimizning ana shu maqsadlarga erishishini badiiy obrazlarda, ishonarli tarzda yaratib berishi lozim.

Masala shu taxlit o'yilishining yana bir muhim sababi bor. Gap bugungi kun qahramoni obrazini yaratish haqida ketayotganini zukko o'quvchi allaqachon anglab yetgan bo'lishi kerak. Bugungi kun qahramoni faqat qo'l kuchi bilan moddiy ne'matlar yaratadigangina emas. U, avvalo, ma'rifatli inson, davlat va jamiyat



mafkuralar yoshlarimiz tafakkur tarzini butunlay izdan chiqarib tashlash imkoniyatiga ega. Agar biz bugun tobora ham shakl, ham mazmun jihatidan taraqqiy etib borayotgan ijtimoiy tarmoqlarga o'z vaqtda javob bera olmas ekanmiz, ko'p narsani yo'qotib qo'yishimiz aniq.

Nazarimda, endi yoshlarimizni “esli bo'lg'in”, “axloqli bo'lg'in”, “yaxshi bo'lg'in” kabi nasihatlar bilan tarbiyalash tobora qiyinlashib boraveradi. Nima, bolalarimiz o'sha gaplarni eshitmaganimi, bilmaydimi? Juda yaxshi biladi. Hamma gap yoshlarimiz bilgan gapning, egallagan bilimining kuchli e'tiqodga aylamaganida. Endi biz, ziyolilar ijtimoiy tamolardan, yoshlarga kuchli ta'sir qiladigan zamonaviy tarbiya usullaridan keng foydalanmas ekanmiz, bu ishlarmiz jamiyat kутgan ijtimoiy samarani berishi qiyin. Shu asnoda ziyolilarning jamiyat barqarorligi yo'lidagi mas'uliyati tobora ortib boraveradi.

Beshinchidan, ziyoli millatni uyg'otishi kerak. Jadid bobolarimiz millatni uyg'otish o'zlarining eng muhim, eng muqaddas vazifalari ekani ni aytgan edi. Haqiqatan, davlat va jamiyat taraqqiyoti qalbi nurga to'lgan, ko'zi ochiq, g'afldan begona, vijdoni pok insonlar bilangina ta'minlanishi mumkin. Uyuqdagi xalqni uyg'otuvchi esa ziyolilar hisoblanadi.

Boshqacha aytganda, tom ma'nodagi ziyoli odamlarni fazilatlariga eltuvchi va ularni razolatdan uzoqlashtiruvchi, buyuk kuchga ega insondir. Shu ma'noda, har qanday jamiyatda ziyolining eng gullarini aholining boshqa tabaqalariga qaraganda ming chandon keng va chuqur.

Oltinchidan, har doim jamiyat qadriyatlarining o'lchov birligi insonga bo'lgan munosabatdir. Yana ma'lumki, o'zini jamiyat manfaatlariga xizmat qilishga bag'ishlagan insonlar bilan milliy elita shakllanadi. Xo'sh, milliy elitaning sifatleri nimalardan iborat? Nazarimda, mas'uliyat, doimo o'z ustida ishlashga tayyor, ruhan teitk, sadoqatli, ehtiyotkor, axloqli, adolatli, kamsuqum, fidokorlikka o'rgangan, to'g'ri va zarur ish qilayotganiga ishonchi komil, jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan, jasur inson milliy elita vakilidir.

Biz bu fikrni bejiz aytayotganimiz yo'q. Gap shundaki, oldimizda xilma-xil va qiziqarli, ba'zan barchani ham hayratga, ham qo'rquga soladigan muammolar ko'payib bormoqda.



Ular ichida eng jiddiy va muhimi insoniyatning o'zgarishiga olib keluvchi yangi texnologik inqilobni tushunish va shakllantirishdir. Biz yashash tarzimiz, ish faoliyatimiz va o'zaro munosabatlarimizni tubdan o'zgartirib yuboruvchi inqilob ostonasida turibmiz. Ko'lami va murakkabligi jihatidan to'rtinchi sanoat inqilobi” deb nomlangan hodisa insoniyat boshidan kechirgan hech bir jarayonga o'xshamaydi.

Ana shunday sharoitda insoniyat hayot mazmunini topishda qiynalmoqda. Yoshlarimiz qadriyatlar iyerarxiyasida nimalar turishi kerakligini aniqlashda xatolarga yo'l qo'ymoqda. Eng yomoni, e'tiqodi sust ba'zi yoshlarimizda bir necha shaxsiyatga ega bo'lish ehtimoli kuchayib boryapti. Bu juda xavfli holat.

Bir paytlar ana shunday tahlikali holat yuzaga kelganda milliy ziyolilarimizning gullari, milliy elitamizning qaymog'i bo'lgan jadid bobolarimiz ham tashvish chekib, yaxshi o'qimasdan, kaptarbozlik, bedanbozlik, qimorbozlik ishlari bilan band bo'lganlarning hech qachon biri ikki bo'lmasligini bot-bot ta'kidlagan. Jumladan, jadid taraqqiyparvarlardan Tavallo o'zining “Ilm natijalari” maqolasida bunday yozadi: “Ey qardoshlarim, yoshlarning baxtli yashamoqlari bizlarning ijthodimizga bog'liqdur. Agarda yoshlar tarbiyasiz o'ssalar, bir kun bular siz bilan bizni duobad qilurlar, nafrat etarlar. Agarda bizlar yoshlikdan yaxshi tarbiyat qilsak, dunyoda rohatda yashab, boshqalar kabi dunyodin beamron ketarlar. Agarda bizlar uxlab yotsak, millatimizning bog'i hayotiga chechaklar o'tquzib, umid gullarini quruturmuz. Bizlarga dunyoda na kerak: o'qimoq, maishatidin bahralanmoq, Yovrupo maqtablarinda tarbiya ko'r'mak. Yetar bizlar uqloq chopmoq, bachcha o'ynamoq, to'y to'ylamoq”.

Afsuski, bugungi kun ham o'zining mohiyati, xavf-xatarlarga to'lib-toshgani bilan barchani tashvishga solmoqda. Ma'naviyatsizlik ortib bormoqda. Oqibatda jamiyatda odamlarning milliy madaniy merosdan begonlashuvi, an'anaviy qadriyatlar eskilik qoldig'i sifatida to'g'ridan to'g'ri inkor etilishi, davlat va jamiyat manfaatlariga nisbatan bepisandlik holatlari uchrarmoqda, bularning bari milliy ziyolilarimiz oldiga juda katta vazifalarni qo'ymoqda.

Jamiyatda beqarorlikni barqarorlikka, ma'naviyatsizlikni ma'naviyatlilikka aylantiradigan ham, kosmopolitda vatan uchun jonini fido qilishgacha bo'lgan kayfiyatni shakllantiradigan, o'z shaxsiy manfaatini hamma narsadan yuqori qo'yuvchi individualistni jamiyat uchun qayg'uradigan, ijtimoiy faol insonga aylantiradigan ham ziyoli bo'ladi.

Shuning uchun yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini qurish ziyolilar ishtirokizida amalga oshmaydi. Bugungi jamiyatimizning yanada barqarorlashuvi,

Haqiqatan, ziyoli — ziyo, nur tarqatuvchi sifatida bugun yana o'z ijtimoiy o'miga ega bo'lib bormoqda. Ayni paytda ziyolilarning jamiyatdagi o'rmini yanada mustahkamlash, ta'sir kuchini oshirish, so'zsiz, bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Avvallari yozuvchilar, jurnalistlar, teatr arboblari va boshqa ziyoli tabaqalarning turli qurultoylari, ijodiy uchrashuvlari bo'lardi. Bu tadbirlarda ziyolilar o'z sohasidagi kamchilik, xato, muammolarni tahlil qilar, soha yanada taraqqiy etishi bilan bog'liq muhim strategik yo'nalishlarni belgilab olardi. To'g'ri, hozir ham bunday tadbirlar onda-sonda bo'lib turadi. Biroq, kuzatishimcha, ularning aksariyati ishlab chiqarish, tashkiliy masalalar bilangina chegaralanib qolayotganga o'xshaydi.

Shu ma'noda, ziyolilarning qurultoylarini o'tkazish amaliyotini tiklashni zarur deb o'ylayman. Bu mustabid tuzumni qo'mash emas. Biz jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qiladigan har bir narsadan samarali foydalanishni ham o'rganishimiz kerak. Ziyolilar qurultoylarida sohaning eng dolzarb masalalari muhokama etilishi, jamiyat ijtimoiy-ma'naviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladigan targ'ibot usullarini ishlab chiqish, madaniyat va san'at, milliy adabiyotimizdagi zamon qahramoni obrazini yaratish, islohotlarda ma'naviy-mafkuraviy omilning o'rmini oshirish kabi masalalar o'rganilisa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yana bir masala: biz yuqorida qayd etganimizdek, butun insoniyat to'rtinchi sanoat inqilobi ostonasida turibmiz. Shubhasiz, uning ijobiy tomonlari juda ko'p. Odamlar og'irini yengil qilish, vaqtini tejash, jismoniy mehnatni yengillashtirish, ish samaradorligini oshirish kabilarda mazkur inqilob alohida o'rin tutadi. Ayni paytda bu jarayon sof insoniy munosabatlar, axloqiy masalalar, “inson — jamiyat — davlat” tamoyiliga, an'anaviy qadriyatlarining davomiyiligiga, qolaversa, barchamiz uchun qadrdon o'zbekchilgimizga jiddiy ta'sir ko'rsatishi ham ayon.

Ana shunday sharoitda ziyolilarimiz zimmasiga juda katta mas'uliyat tushadi. Shoir va yozuvchilar tomonidan an'anaviy tarzda yaratilayotgan asarlarni sun'iy intellekt bir lahzada bajarmoqda, odamlar oddiy nasihatlarini eshitishdan qochmoqda, ular barcha savollariga ijtimoiy tarmoqlar orqali javob olmoqda. Bu esa ziyolilar mas'uliyatini yanada oshirishga undaydi. Avvallari foydalanib kelingan usullar tez eskirmoqda. Bunday sharoitda ziyolilarimiz o'z faoliyatining yangi, innovatsion usullarini yaratishi dolzarb ahamiyatga ega bo'lyapti.

Raqamli dunyoning ta'siri juda tez, ko'z ilg'amas tarzda o'zgarimoqda. Buning uchun esa biz, ziyolilar raqamli dunyoga moslashishimiz, o'zgarishimiz, o'zgaranda ham bitta-bitta bo'lib emas, jamoaviy tarzda yangilanishimiz kerak.

Birdamlik va barqarorlik biz uchun ustuvor vazifa va buyuk niyat. Ibn Xalldun bu borada bunday deydi: “Hokimiyatning poydevori g'alabaga, g'alaba esa xalq birdamligiga va maqsadlar birligiga asoslangan. Biroq bu xalq birdamligi va maqsadlarning yagona yo'nalishda bo'lishiga tayanadi. Insonlarning qalblari botli manfaatlar va botli yo'llarga tortilganda, ular orasida raqobat va nizolar kuchayadi. Ammo qalblar haqiqiy manfaatlardan voz kechib, yagona maqsad atrofida birlashadi. Shu bilan birga, raqobat yo'qoladi, o'zaro nizolar kamayadi va jamoaviy birdamlik kuchayadi, bu birlik davlatning kuchayishiga va barqaror bo'lishiga olib keladi”.

Darhaqiqat, bugun dunyo alg'ov-dalg'ov bo'lib turgan bir paytda qadriyatlar qadrsizlanib, sof insoniy munosabatlarga darz ketayotgan davrda birdamlik va barqarorlik biz uchun eng ustuvor maqsaddir. Ana shu vazifa esa ziyolilarimiz, ular o'rnatadigi sof ijodiy hamkorlikka bog'liq. Chunki ziyoli birlashsagina, millat birlashadi.



Xalqaro hamkorlik

Boshlanishi 1-betda

Boku shahrida boʻlib oʻtgan ikkinchi mediaforum kun tartibidan raqamlashtirish sharoitida ommaviy axborot vositalarining roli, shuningdek, raqamli davrda mediahamkorlik va axborot xavfsizligi, dezinformatsiya tarqalishiga qarshi kurashishning samarali strategiyalariga oid muhim masalalar oʻrin oldi.

Ishirokchilar Oʻzbekiston va Ozarbayjon ommaviy axborot vositalari oʻrtasidagi hamkorlik imkoniyatlarini muhokama qildi. Bu ikki mamlakatda axborot xavfsizligini mustahkamlash va jurnalistika sifatini oshirish imkonini beradi.

Bugungi raqamli davr axborot almashinuvi, yangilik va xabar tarqatish hamda kommunikatsiya jarayonini tubdan oʻzgartirib yubordi, — deydi Oʻzbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi Xolmurod Salimov. — Qolaversa, yangi xavflarni yuzaga keltirish barobarida qator imkoniyatlar ham yaratildi. Internet va raqamli texnologiyalar axborot manbaini kengaytirish barobarida uning

sifati, xavfsizligi va taʼsirini ham yangi bosqichga olib chiqdi. Axborot almashinuvi surʼati oshgani sari jarayonni nazorat qilish, muayyan xabarning asosli yoki asossizligini aniqlash qiyinlashib boryapti. Bugun axborot faqat maʼlumot yoki xabar emas, balki u endi taʼsir, nazorat, hatto qurol vazifasini oʻtayapti. Shuning uchun ham axborot xavfsizligini taʼminlash barchamizning umumiy manfaatimizdir.

Axborot xavfsizligini taʼminlashda sunʼiy intellekt muhim oʻrin tutmoqda. Shu bois, sunʼiy intellekt asosida ishlaydigan tizimlar tarmoqlardagi shubhali faoliyatni aniqlab, avtomatik tahlil qilishi mumkin.

Taʼkidlanganidek, raqamli davr axborot maydonidagi ulkan transformatsiyalarni vujudga keltirdi. Ushbu jarayonda mediahamkorlik va axborot xavfsizligi bir-biri bilan uzviy bogʻliq. Har bir davlat va jamiyat raqamli vositalardan oqilona foydalangan holda axborot maydonida faol va masʼul ishtirokchiga aylanishi lozim. Shundaygina raqamli imkoniyatlar barqaror rivojlanish va xalqaro hamjihatlikka xizmat qiladi.

— XXI asrda mediasavodxonlik hashamat yoki ixtiyoriy koʻnikma emas, balki har bir fuqaro uchun zarur asosiy xususiyatidir, — deydi OʻzJOKU prorektori Nozima Murodova. — Boʻljak jumalistlar uchun bu endi yetarli emas. Ularga yangi kompetensiyalar — raqamli vositalar bilan ishlash, katta maʼlumotlarni tahlil qilish, axboriy shovqin sharoitida faktlarni tekshirish qobiliyati kerak. Shu bilan birga, ular axloqiy tamoyil va insonparvarlik qadriyatlarini yetkazuvchilar boʻlib qolishi zarur. Qolaversa, jurnalistika taʼlimi bilan bir qatorda tadqiqotlar ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugun algoritmlar, ijtimoiy tarmoqlar va sunʼiy intellektning axborot ekotizimiga taʼsirini oʻrganmay turib, sifati jurnalistika haqida gapirish mumkin emas. Tadqiqotlarni esa yakka oʻtkazib boʻlmaydi. U xalqaro hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham Oʻzbekiston va Ozarbayjon oʻrtasida mediataʼlim va tadqiqot sohasidagi hamkorlik yangi uqlarni ochmoqda. Qoʻshma laboratoriyalar, akademik almashinuvar, talabalar hamda yosh olimlar uchun moʻljallangan dasturlar shular jumlasidan.

Aholini dezinformatsiya xavfidan himoya qilish uchun qator samarali vositalar mavjud. Ular orasida jamiyatning taʼlim darajasi va mediasavodxonligini oshirish alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun raqamli koʻnikmalar koʻplab mediatuzilmalar va jamoat tashkilotlari tomonidan muvaffaqiyatli qoʻllanmoqda.

Soʻnggi yillarda media sohasida davlat qoʻllab-quvvatlovi bilan jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Oʻzbekiston va Ozarbayjon jumalistlari hamkorlikda dezinformatsiyaga qarshi samarali mexanizmlarni ishlab chiqmoqda. Bu nafaqat ikki davlat, balki butun mintaq uchun namuna boʻlishi mumkin.

Mazkur forum ikki davlatning media sohasida hamkorlikni kuchaytirish, tajriba almashish, raqamli yangilanish jarayonlariga moslashish, dezinformatsiyaga qarshi samarali choralar koʻrish va axborot sohasida intellektual hamkorlikni rivojlantirish masalalariga xizmat qiladi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



Favqulodda vaziyatlar vazirligining Fuqaro muhofazasi institutida soha mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirish hamda yoʻnalishga doir ilmiy tadqiqotlar oʻtkazish samaradorligini oshirish, shuningdek, institutning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida samarali ishlar qilindi.

Jumladan, favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligi mutaxassislari boʻyicha magistr darajasiga ega boʻlgan oliy maʼlumotli, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimi yoʻlga qoʻyildi. Bugun institutning magistratura bosqichini tamomlagan mutaxassislar Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hududiy komissiyalari, vazirliklar, kompaniyalar, banklar va oliy taʼlim muassasalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

OTMda respublika, viloyat, tuman miqyosidagi tashkilotlar rahbarlari va masʼul mutaxassislari, shuningdek, tuman hamda shahar hokimlari va oʻrinbosarlarining fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik tayyorgarligi yoʻnalishida malakasini oshirish, kichik hajmli kema haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirish kurslarida oʻqitish yoʻlga qoʻyilgan.

Ayni paytda nogironligi bor fuqarolarni favqulodda vaziyatlarda toʻgʻri harakatlanishga tayyorlash sikli tomonidan Ijtimoiy himoya milliy

agentligi va Nogironlarni himoya qilish milliy assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda inklyuziv taʼlim muassasalari uchun favqulodda vaziyatlarda toʻgʻri harakatlanishga oid oʻquv dasturlari va qoʻllanmalar ishlab chiqilib, yetkazib berildi.

Fuqaro muhofazasi institutida favqulodda vaziyatlarda simulyatsiya qilish markazi alohida ahamiyatga ega. Markazdan zilzila tarixi muzeyi, virtual tarzda favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga moʻljallangan oʻquv xonasi, bilimlarni sinash, relaksatsiya, zilzila simulyator-trenajyor, aloqa va xabar berish, yongʻin xavfsizligi xonalari oʻrin olgan.

Institut professor-oʻqituvchilari fuqaro muhofazasi sohasida kadrlar malakasini oshirish va aholini favqulodda vaziyatlarda toʻgʻri harakatlanishga tayyorlash uchun jahon amdozalariga mos milliy taʼlim platformasini ishlab chiqqan. Oʻquv kurslariga jalb qilingan tinglovchilar mazkur onlayn platforma orqali masofadan oʻqitilyapti.

Ayni paytda institutda ikki akademik, ikki fan doktori va professorlar, oʻnlab fan nomzodlari,

falsafa doktorlari, shuningdek, yosh ilmiy tadqiqotchilar faoliyat yuritmoqda. Oʻtgan yillarda OTM professor-oʻqituvchilari sohaga oid 500 ga yaqin oʻquv-ilmiy adabiyotlar, jumladan, darslik, monografiya, oʻquv-uslubiy qoʻllanma hamda bir qancha targʻibot materiallarini tayyorladi.

Shu bilan birga, institutda ilmiy-innovatsion soha boʻyicha ham samarali ishlar boshlangan. Jumladan, oʻtgan yillarda aholini ofatlar davrida toʻgʻri harakatlanishga oʻrgatuvchi “Zilzila vaqtida harakat qilish” hamda “Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish” mobil ilovalari yaratilib, ishga tushirildi. Ushbu yoʻnalishdagi tadqiqotlar ayni paytda ham izchil davom ettirilmoqda.

Hamkorlik institut faoliyatining muhim jihatlari. Shu bois, OTM 30 ga yaqin mahalliy va xorijiy oliy taʼlim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari, jumladan, Rossiya va Belarusning turdosh oliygoʻhlari bilan hamkorlik qilib keladi.

Shu maʼnoda, Fuqaro muhofazasi instituti aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida taʼlim, ilm-fan va innovatsiyalar yoʻnalishidagi yutuqlarni oʻzida mujassam etgan oliy taʼlim muassasasi sifatida oʻz oʻrni va mavqeiga ega.

Jumadulla SAGATOV,
Fuqaro muhofazasi instituti dotsenti

PAXTA DALALARIDA ZAMONAVIY TEXNIKA QOʻL MEHNATIGA BARHAM BERMOQDA

— Ayni vaqtda Navoiy viloyati paxta dalalarida mashinalarimizning ishlashini nazorat qilib turibmiz, — deydi xitoylik mutaxassis Gu Yuan. — Oʻquv jarayonida mahalliy mexanizatorlarga texnikamizni yaxshiroq tanishtirdik. Dalada amaliy mashgʻulotlar oʻtdik. Hozir ular mashinalarni bemalol boshqaryapti. Bu texnika vositalari tezligi, yuqori samaradorligi va yoqilgʻi tejamlorligi bilan ajralib turadi.

Hozir Navbahor tumanidagi paxta dalalarida ish qizgʻin. Ushbu mavsumda hududda 5866 gektarda paxta yetishtirildi. Fermer xoʻjaliklari bu yil yangi navlarni sinovdan oʻtkazdi. Jarayonga agronom va urugʻchilik bilan shugʻullanuvchi mutaxassislar jalb qilindi va natijalar kutilganidan ham aʼlo boʻlmoqda.

— Joriy yilda tumanimizdagi paxta dalalariga



gʻoʻzaning xorijiy va mahalliy navlari ekildi, — deydi Navbahor tumani hokimi oʻrinbosari Zafar Gʻulomov. — Har bir daladan oʻrtacha 50-

60 sentnerdan hosil olishni maqsad qilganmiz. Paxta, asosan, zamonaviy mashinalarda terilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan

JARAYON

yuz.uz_news

YANGI OʻZBEKISTON

yuz.uz



Chorvachilik

UCH YILDA YUZ MING BOSHGA YETADI

QASHQADARYOLIK FERMERLAR MOʻGʻULISTONDAN KOʻPROQ QOʻY OLIB KELIB, TEZROQ KOʻPAYTIRMOQCHI

“Soha mutaxassislarining maʼlumotiga koʻra, hozir Qashqadaryo viloyatda 1263 ta qoramolchilik, 573 ta qoʻy-echkichilik, 12 ta yilgichilik, 6 ta tuyachilik, 146 ta parrandachilik, 351 ta baliqchilik, 27 ta asalarichilik, 15 ta quyonchilik xoʻjaligi faoliyat yuritmoqda.

Boshlanishi 1-betda

— Nimasiga ikkilandingiz? Arzon sotilsa, sifatsiz boʻladimi! Qoʻy goʻshti boʻlsa, olavermaysizmi, — deya tanbeh bergan boʻldi suhbatdoshlaridan biri. — E, binoyidek edi. Faqat shu... — “Shu” deyishingiz nimasi, oqsoqol? Kecha oshxonada tushlik qilib, taomning mazasini maqtab chiqdingiz. Qolaversa, haligina qoʻshnirikida yeyilgan oshning

Natijada sifatlari va arzon kefir, qaymoq, pishloq kabi koʻplab sut mahsulotlari isteʼmolchilarga yetkazib berilyapti. Davlatimiz rahbarining joriy yil 17-iyuldagi “Moʻgʻulistonga oliy darajadagi tashrif davomida qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat sohaslarida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori ijrosini taʼminlash maqsadida yaqinda mazkur fermer xoʻjaligiga ming bosh zotli qoʻy olib kelindi.



goʻshti ham shundan edi. Ana, Bahodir fermerning dalasiga borsangiz, chet eldan olib kelingan bir suruv qoʻy yuribdi. Prezidentimiz baraka topsin, Moʻgʻulistonga borganida koʻp yaxshi shartnomalar tuzib keldi. Shulardan biri goʻsht, qoʻy olib kelish toʻgʻrisida boʻlgan ekan. Tadbirkorlar endi oson boʻldi, deb Moʻgʻulistondan goʻsht bilan qoʻyni bosib olib kelyapti.

— Shunday deng. Oʻsha goʻshtdan shuncha yeb, hech farqini sezmayman. Endi men ham shundan olganim boʻlsin. Bu yoqda jaydari qoʻyning bir kilogramm goʻshti 150 ming soʻmdan sotilib yotibdi. Shu pulga ikki kilo berarkan, — deya oqsoqol mamnun boʻldi.

Bu gapni eshitib, keksa hisobchi yoʻqotgan narsasini topganday boʻldi. Birdan uchaqirib yurib, qoʻy olib kelish toʻgʻrisida boʻlgan ekan. Tadbirkorlar endi oson boʻldi, deb Moʻgʻulistondan goʻsht bilan qoʻyni bosib olib kelyapti.

Hovliga kirib kelganida qoʻlidagi yelimxalta xiyla ogʻir edi. Lekin otaning yelkasidagi yuk yengillashgandi. Qoʻliga eski choʻtni olib, donalarini har tarfaga surdi, qaytardi. Yakuniy natijadan yuziga tabassum yugurdi...

Bahodir Rustamov Kitob tumanida bir necha yildan buyon fermer sifatida faoliyat yuritadi. Chorvachilikda yaxshigina tajribaga ega. Dastlab mahalliy qoramollarni koʻpaytirdi. Keyinchalik boshqa mamlakatlardan ham zotdor mollarni olib kelib, boʻrdoqchilikni yoʻlga qoʻydi. Shuning evaziga fermer Kitob, Yakkabogʻ, Shahrisabz tumanlari bozorini ham goʻsht bilan taʼminlayapti. Hozir uning “Sharipov Hamroqul” fermer xoʻjaligida 150 bosh qoramol boqilyapti. Xorijlik hamkorlari koʻmagida goʻsht importini ham yoʻlga qoʻygʻan. Bundan tashqari, sutni qayta ishlash korxonasi ham bor. Bu yerda oyiga 100 tonnadan ortiq sut qayta ishlamoqda.

— Prezidentimiz tashabbusi bilan xalqaro aloqalar yoʻlga qoʻyilgani chorvachilik yoʻnalishidagi fermerlar uchun katta imkoniyat boʻldi. Jumladan, tadbirkorlarga import borasida transport xarajatining 50 foizi qoplab berilyapti. Soliq imtiyozlari belgilangan. Bunday qulaylikdan foydalanmay boʻladimi? Qolaversa, bozorlarimiz qancha toʻkin boʻlsa, shuncha yaxshi, — deydi Bahodir Rustamov. — Moʻgʻulistonga bordim. U yerdagi fermerlar bilan yaqindan tanishdik. Ish tajribasini oʻrgandik. 10 ming bosh qoʻy sotib olish uchun shartnomaga tuzdim. Hozir 1000 tasi olib kelindi. Tez orada yana shuncha keltiramiz. Maqsadimiz — qoʻyni koʻpaytirish. Bunga yetarlicha sharoitimiz bor. Faqat yaylov ajratilsa, boʻldi. Oʻrganishlarimizga koʻra, imtihan qilingan qoʻylarning aksariyati ikki-uchtagacha egiz qoʻzi beradi. Shu sabab bu qoʻylarni uch yilda 100 ming boshga yetkazishni niyat qildik. Bundan tashqari, tayyor goʻsht olib kelishni ham maqsad qilganmiz. Kuni kecha 19 ming tonna goʻsht

— Prezidentimiz tashabbusi bilan xalqaro aloqalar yoʻlga qoʻyilgani chorvachilik yoʻnalishidagi fermerlar uchun katta imkoniyat boʻldi. Jumladan, tadbirkorlarga import borasida transport xarajatining 50 foizi qoplab berilyapti. Soliq imtiyozlari belgilangan. Bunday qulaylikdan foydalanmay boʻladimi? Qolaversa, bozorlarimiz qancha toʻkin boʻlsa, shuncha yaxshi, — deydi Bahodir Rustamov. — Moʻgʻulistonga bordim. U yerdagi fermerlar bilan yaqindan tanishdik. Ish tajribasini oʻrgandik. 10 ming bosh qoʻy sotib olish uchun shartnomaga tuzdim. Hozir 1000 tasi olib kelindi. Tez orada yana shuncha keltiramiz. Maqsadimiz — qoʻyni koʻpaytirish. Bunga yetarlicha sharoitimiz bor. Faqat yaylov ajratilsa, boʻldi. Oʻrganishlarimizga koʻra, imtihan qilingan qoʻylarning aksariyati ikki-uchtagacha egiz qoʻzi beradi. Shu sabab bu qoʻylarni uch yilda 100 ming boshga yetkazishni niyat qildik. Bundan tashqari, tayyor goʻsht olib kelishni ham maqsad qilganmiz. Kuni kecha 19 ming tonna goʻsht



— Prezidentimiz tashabbusi bilan xalqaro aloqalar yoʻlga qoʻyilgani chorvachilik yoʻnalishidagi fermerlar uchun katta imkoniyat boʻldi. Jumladan, tadbirkorlarga import borasida transport xarajatining 50 foizi qoplab berilyapti. Soliq imtiyozlari belgilangan. Bunday qulaylikdan foydalanmay boʻladimi? Qolaversa, bozorlarimiz qancha toʻkin boʻlsa, shuncha yaxshi, — deydi Bahodir Rustamov. — Moʻgʻulistonga bordim. U yerdagi fermerlar bilan yaqindan tanishdik. Ish tajribasini oʻrgandik. 10 ming bosh qoʻy sotib olish uchun shartnomaga tuzdim. Hozir 1000 tasi olib kelindi. Tez orada yana shuncha keltiramiz. Maqsadimiz — qoʻyni koʻpaytirish. Bunga yetarlicha sharoitimiz bor. Faqat yaylov ajratilsa, boʻldi. Oʻrganishlarimizga koʻra, imtihan qilingan qoʻylarning aksariyati ikki-uchtagacha egiz qoʻzi beradi. Shu sabab bu qoʻylarni uch yilda 100 ming boshga yetkazishni niyat qildik. Bundan tashqari, tayyor goʻsht olib kelishni ham maqsad qilganmiz. Kuni kecha 19 ming tonna goʻsht

— Prezidentimiz tashabbusi bilan xalqaro aloqalar yoʻlga qoʻyilgani chorvachilik yoʻnalishidagi fermerlar uchun katta imkoniyat boʻldi. Jumladan, tadbirkorlarga import borasida transport xarajatining 50 foizi qoplab berilyapti. Soliq imtiyozlari belgilangan. Bunday qulaylikdan foydalanmay boʻladimi? Qolaversa, bozorlarimiz qancha toʻkin boʻlsa, shuncha yaxshi, — deydi Bahodir Rustamov. — Moʻgʻulistonga bordim. U yerdagi fermerlar bilan yaqindan tanishdik. Ish tajribasini oʻrgandik. 10 ming bosh qoʻy sotib olish uchun shartnomaga tuzdim. Hozir 1000 tasi olib kelindi. Tez orada yana shuncha keltiramiz. Maqsadimiz — qoʻyni koʻpaytirish. Bunga yetarlicha sharoitimiz bor. Faqat yaylov ajratilsa, boʻldi. Oʻrganishlarimizga koʻra, imtihan qilingan qoʻylarning aksariyati ikki-uchtagacha egiz qoʻzi beradi. Shu sabab bu qoʻylarni uch yilda 100 ming boshga yetkazishni niyat qildik. Bundan tashqari, tayyor goʻsht olib kelishni ham maqsad qilganmiz. Kuni kecha 19 ming tonna goʻsht

— Prezidentimiz tashabbusi bilan xalqaro aloqalar yoʻlga qoʻyilgani chorvachilik yoʻnalishidagi fermerlar uchun katta imkoniyat boʻldi. Jumladan, tadbirkorlarga import borasida transport xarajatining 50 foizi qoplab berilyapti. Soliq imtiyozlari belgilangan. Bunday qulaylikdan foydalanmay boʻladimi? Qolaversa, bozorlarimiz qancha toʻkin boʻlsa, shuncha yaxshi, — deydi Bahodir Rustamov. — Moʻgʻulistonga bordim. U yerdagi fermerlar bilan yaqindan tanishdik. Ish tajribasini oʻrgandik. 10 ming bosh qoʻy sotib olish uchun shartnomaga tuzdim. Hozir 1000 tasi olib kelindi. Tez orada yana shuncha keltiramiz. Maqsadimiz — qoʻyni koʻpaytirish. Bunga yetarlicha sharoitimiz bor. Faqat yaylov ajratilsa, boʻldi. Oʻrganishlarimizga koʻra, imtihan qilingan qoʻylarning aksariyati ikki-uchtagacha egiz qoʻzi beradi. Shu sabab bu qoʻylarni uch yilda 100 ming boshga yetkazishni niyat qildik. Bundan tashqari, tayyor goʻsht olib kelishni ham maqsad qilganmiz. Kuni kecha 19 ming tonna goʻsht

— Prezidentimiz tashabbusi bilan xalqaro aloqalar yoʻlga qoʻyilgani chorvachilik yoʻnalishidagi fermerlar uchun katta imkoniyat boʻldi. Jumladan, tadbirkorlarga import borasida transport xarajatining 50 foizi qoplab berilyapti. Soliq imtiyozlari belgilangan. Bunday qulaylikdan foydalanmay boʻladimi? Qolaversa, bozorlarimiz qancha toʻkin boʻlsa, shuncha yaxshi, — deydi Bahodir Rustamov. — Moʻgʻulistonga bordim. U yerdagi fermerlar bilan yaqindan tanishdik. Ish tajribasini oʻrgandik. 10 ming bosh qoʻy sotib olish uchun shartnomaga tuzdim. Hozir 1000 tasi olib kelindi. Tez orada yana shuncha keltiramiz. Maqsadimiz — qoʻyni koʻpaytirish. Bunga yetarlicha sharoitimiz bor. Faqat yaylov ajratilsa, boʻldi. Oʻrganishlarimizga koʻra, imtihan qilingan qoʻylarning aksariyati ikki-uchtagacha egiz qoʻzi beradi. Shu sabab bu qoʻylarni uch yilda 100 ming boshga yetkazishni niyat qildik. Bundan tashqari, tayyor goʻsht olib kelishni ham maqsad qilganmiz. Kuni kecha 19 ming tonna goʻsht

sotib olish uchun kelishuv tuzdik. Tez orada goʻshtni olib kelib, bozorga chiqaramiz.

Ayni paytda chet eldan keltirilgan qoʻylar veterinariya kuzatuv i ostida Kitob tumani saylovlarida boqilmoqda. Choʻponlarning aytishicha, hozir chorva oson moslashyapti. Mahalliy yem-xashaklar bilan oziqlanyapti. Boqish muammo emas.

Soha mutaxassislarining maʼlumotiga koʻra, ayni paytda Qashqadaryo viloyatida 1263 ta qoramolchilik, 573 ta qoʻy-echkichilik, 12 ta yilgichilik, 6 ta tuyachilik, 146 ta parrandachilik, 351 ta baliqchilik, 27 ta asalarichilik, 15 ta quyonchilik xoʻjaligi faoliyat yuritmoqda. Ularda 1 million 762 ming bosh qoramol, 5 million 109 ming bosh qoʻy-echki, 38 ming bosh yilqi, 6 million 973 ming bosh parranda parvarishlanyapti.

Joriy yil yakuniga koʻra, viloyatda mayda shoxli mollar sonini 5 million 300 ming boshga yetkazish kutilmoqda. Bugun vohada boqilayotgan qoʻylar “Hisori”, “Qorakoʻl”, “Edilboy”, “Romanov” va mahalliy zotlardan iborat. Ularning zotini yaxshilash, mahsulotligini oshirish boʻyicha bir qancha ishlar qilinayapti. Xususan, yuqorida nomi zikr etilgan qarorga asosan, Moʻgʻulistondan 10 ming bosh zotli qoʻy olib kelinadi.

Bundan tashqari, viloyatda faoliyat yuritayotgan 12 ta tadbirkorlik subyekti 11 ming 600 bosh qoʻy olib kelish tashabbusi bilan chiqqan. Buning uchun ular 27 milliard soʻmlik shartnoma tuzgan. Bugungacha Moʻgʻulistondan Yakkabogʻ tumanidagi “Kumush kuz fayzi” va “Oqtoqsh kelajagi” MCHJlarga jami 4000 bosh, Kitob tumanidagi “Sharipov Hamroqul” fermer xoʻjaligiga esa 1000 bosh qoʻy olib kelindi.

Joriy yilning 10-oktabriga qadar tadbirkorlar qoʻshimcha 6500 bosh qoʻy olib kelish boʻyicha tashkiliy choralarini koʻryapti. Ularga tijorat banklari tomonidan moliyaviy manbalar hal etib berilgan. Olib kelingan qoʻylarni Oʻzbekiston iqlimiga moslashtirish juda muhim bosqich. Shu bois, veterinariya va karantin talablari puxta ishlab chiqilgan. Qoʻylarni shu talablarga mos tarzda saqlash, oziqlantirish boʻyicha malakali mutaxassislar birlashtirilgan. Ular tadbirkorlarga bu borada zarur maslahatlar berib bormoqda.

Qaror talablaridan kelib chiqqan holda, Moʻgʻulistondan olib kelingan 10 ming bosh qoʻy Qashqadaryo sharoitida naslchilik-seleksiya ishlari yordamida koʻpaytiriladi. Natijada ular soni 2029-yil yakuniga qadar 100 ming boshga yetkazilishi kerak. Hozir tadbirkor-chorvadorlar shu maqsadni koʻzlab, samaradorlikka erishish harakatida. Muhimi, bu ishlar natijasida bozorlarimiz obod boʻladi, oziq-ovqat narxi barqarorlashadi, aholining ehtiyoji qoplanadi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Navoiy viloyatida paxtani zamonaviy yondashuvlar asosida yetishtirish yoʻlga qoʻyildi. Kutilayotgan hosildorlik oʻrtacha 70-80 sentner baholanmoqda. Muhimi, yangi paxta navlari viloyat iqlimiga toʻliq moslashtirildi. Shoʻr tuproqqa qaramay, gʻoʻza koʻchatlari sogʻlom va serhosil oʻsdi.

Bu yilgi terimda paxtani mashinada terishga koʻproq eʼtibor qaratilyapti, asta-sekin qoʻl mehnatiga barham berilmoqda. Navoiylik fermerlarning ish unumdorligini oshirish maqsadida oʻtgan yili viloyatga 53 ta paxta terish mashinasi keltirilgan edi. Shu bois, mavsum boshidan chigit mashinada terib olishga moslab ekildi.

Joriy yilda Navoiy viloyatiga imtiyozli kredit asosida 20 ta paxta terish mashinasi ajratildi. Shu bilan birga, yuqori umumli zamonaviy 34 ta paxta terish mashinasi olib kelindi. Albatta, sohaga zamonaviy texnika kirib kelishi malakali mexanizatorlar tayyorlashni ham taqozo etadi. Shu maqsadda mavsum oldidan oʻquv kurslari tashkil etildi.

Gʻolib ABDUSALOMOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

SO‘Z VA AMAL BIRLIGI

YOSHLAR UCHUN OLIY IBRAT MAKTABIDIR

Shohrux QO‘CHQOROV,
“Turonbank” ATB boshqaruvi
raising matbuot kotibi

Prezidentimizning AQSHga amaliy tashrifini yil tashrifi, deyish mumkin. Bu – tashrif manzili aynan AQSH bo‘lgani uchun emas, balki 38 million nufusli o‘zbekistonliklarga katta manfaat olib keladigan voqealarga boy bo‘lgani uchun. Qanday manfaat, bizga qanaqa foydali jihatlari bor deysizmi?



Birinchidan, davlatimiz rahbari 22-sentabr kuni Nyu-York shahrida nufuzli delegatsiyalar rahbarlari, xalqaro tashkilotlar va AQSHning yirik kompaniyalari yetakchilari bilan 20 ga yaqin uchrashuv o‘tkazdi. Tasavvur qilypsizmi: bir kechaning o‘zida 20 ga yaqin muloqot! Vaqt va jismoniy imkoniyat nuqtayi nazaridan ilojisizdek ko‘ringan ushbu uchrashuvlarning har birida, albatta, hamkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni ko‘paytirishga doir muhim kelishuvlarga erishildi. Bu — yangi korxonalar, daromadli va muqim yangi ish o‘rinlari, siz u uchun imkoniyat degani.

kuchaymoqda, texnologik va ijtimoiy tengsizlik keskin oshmoqda, iqtisodiy va gumanitar inqirozlar ortib bormoqda. Bularning hammasi mutlaqo yangi, xavotirli geosiyosiy voqelikni vujudga keltirmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimizdagi islohotlar, xususan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, gender tenglik va ijtimoiy farovonlik sohalaridagi yutuqlar biz, yoshlarni yanada faol va mas’uliyatli bo‘lishga undaydi. Zero, ustuvor maqsadimiz mamlakatimizda yashayotgan har bir oila, har bir fuqaroning hayotini tubdan o‘zgartirish, inson qadri va



Ikkinchidan, Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasi 80-sessiyasida yangi O‘zbekistonning so‘zi va amali birligini butun dunyoga ko‘rsatdi. Ya’ni davlatimiz rahbari bundan 8 yil oldin o‘sha yuksak minbarida Markaziy Osiyoni tinchlik, yaxshi qo‘shnichilik va sheriklik makoniga aylantirishga qat’iy qaror qilinganini e’lon qilgan edi. O‘sha paytda mintaqamizdagi vaziyatdan kelib chiqib, kimdir ishonchi yoki ishonmadi, bunisi bizga qorong‘i, lekin bu ishning amalga oshishiga shubha bilan qaraganlar ko‘p edi, nazarimda.

Ha, mantiqan ham bu ish juda qiyin edi. Lekin Prezidentimizning qat’iy siyosiy iradosi, oqilona tashqi siyosati evaziga ko‘zlangan maqsadga erishildi. Davlatimiz rahbari BMT yuksak minbarida turib ta’kidlaganidek, “Biz bu strategik maqsadga erishdik. Yopiq chegaralar, hal etilmagan bahs va nizolardavri tarixda qoldi”.

Buning totli mevasi, imkoniyatlaridan mintaqamizning millionlab aholisi, o‘zbekistonliklar ham bahramand bo‘lyapti, albatta.

Masalaning yana bir muhim jihati ham bor: Prezidentimiz BMT minbarida turib, xalqaro jamoatchilikka bir muammoni hal qilamiz dedi va oradan 8 yil o‘tib, o‘sha yuksak minbarida masala hal bo‘lganini aytdi. Bu so‘z va amal birligidir.

Bugungi o‘zaro ishonch inqirozi kuzatilyotgan bir paytda yangi O‘zbekistonning so‘zi va amali birligi butun dunyoga o‘ziga xos signal bo‘ladi: yangi O‘zbekiston ishonchli do‘st, hamkor. O‘z navbatida, o‘zaro hamkorlik, investitsiya kabi milliy taraqqiyotimiz bilan bog‘liq masalalarda ustuvorlik beradi.

Ayniqsa, davlatimiz rahbarining nutqi biz, yoshlar uchun katta ilhom manbai bo‘ldi. Dunyo miqyosidagi murakkab geosiyosiy vaziyatda O‘zbekistonning tinchlik, hamijhatlik va adolatga asoslangan tashqi siyosatga sodiqligi bizni juda-juda faxrlantirdi.

Nutqda qayd etilganidek, hozir xalqaro institutlarning o‘rni va roli zaiflashmoqda, qarama-qarshilik, nizo va urushlar

farovonligini oshirish ekan, bunga barchamiz birdek mas’ulmiz.

Yangi O‘zbekistonning yosh fuqarosi sifatida yurtimizdagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlaymiz va ularda faol ishtirok etishga tayyormiz. Prezidentimizning endi barcha tizimdagi rahbarlar yoshlarning ovozi e’shitishga majbur, degan talabi bizga yanada ishonch bag‘ishlaydi.

Prezidentimiz nufuzli anjumanda BMT Xavfsizlik kengashini transformatsiya qilish va tarkibini kengaytirish zarurligini bildirdi. Rivojlanayotgan davlatlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ushbu tashabbus biz, yoshlar uchun yanada adolati va teng huquqli dunyo qurishga xizmat qiladi.

Bizni eng xursand qiladigan jihati, BMT yuksak minbarida yurtimizdagi islohotlar samarasi e’tirofi baralla yagradi. Mamlakatimizda kambag‘allik darajasi 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirilgan, ta’lim va ilm-fan sohasi zamon talablariga mos o‘zgartirilayotgani, innovatsion tarmoqlar va texnologik sanoat korxonalari barpo etilayotgani, “yashil” energetika va transport infratuzilmasi modernizatsiya qilinayotgani, kichik biznes jadal rivojlanayotgani va natijada millionlab yangi ish o‘rni ochilayotgani dunyo ahlini qanchalar hayratlantirgan bo‘lsa, o‘zbekistonlik yoshlar qalbini shuncha faxr-iftixorga to‘ldirdi.

Ayniqsa, mamlakatimizda maktabgacha ta’lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshgani, oliy ta’lim bilan qamrov esa 9 foizdan 42 foizga yetgani, albatta, har qancha faxrlanishimizga arziydi. Tarixan juda qisqa muddat — 7-8 yilda erishilgan bu natija dunyo ta’lim tizimi uchun ham namunali ko‘rsatkichdir. Shu ma’noda, pedagoglarning o‘zaro tajriba va bilim almashishi uchun yagona xalqaro platforma yaratish maqsadida O‘zbekistonda Butunjahon professional ta’lim sammitini o‘tkazish taklif etilgani juda o‘rinli bo‘ldi.

Umuman olganda, Prezidentimizning ushbu nutqi biz, yoshlarga katta ishonch, kelajakda yanada yuksak marralarga erishish uchun kuch-quvvat beradi.



2025-yil 4-oktabr,
204-son

5

Yangi tahrirdagi
Konstitutsiyamiz muqaddimasida
“davlatchiligimiz rivojining uch
ming yildan ziyod tarixiy tajribasi,
shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga
beqiyos hissa qo‘shgan buyuk
ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va
ma’naviy merosi” alohida
ta’kidlanadi.

CHIG‘ATOY ULUSINING PAYDO BO‘LISHI VA PARCHALANISHI

XIII asrdagi mo‘g‘ul istilosi shu davr kishilari hamda ularning avlodi shuuriga juda qattiq ta’sir o‘tkazdi. Natijada mo‘g‘ul xalqi va tarixini o‘rganish deyarli istilo bilan bir paytning o‘zida boshlanib ketdi. Kutilmagan fojiga yo‘liqqan Osiyo va Sharqiy Yevropa mamlakatlari xalqlari – arab, fors, rus, arman, gruzin, polyak, xitoy, venger, nemis tillarida mo‘g‘ullar yurishi, jang qilish usullari, qo‘shini tuzilishi, odamlarni shafqatsiz va ommaviy qirishi, vayron etilgan shahar hamda qishloqlar, buzib tashlangan kanallar, bog‘-rog‘lar haqida afsus bilan ko‘plab ma’lumotlar yozib qoldirildi. Istilodan so‘ng o‘rnatilgan mo‘g‘ullar boshqaruv tizimi, ularning dunyoqarashi, turmush tarzi xususida ham mufassal xotiralar hamda hikoyalar qayd etildi.

Mazkur manbalarning o‘ziga xosligi shundaki, zabt etilgan mamlakatlarning bu mavzuda yozgan barcha mualliflari hamda ularning avlodlari o‘zi guvoh bo‘lib yoki ota-bobolaridan eshitganlari haqida hikoya qilarg ekan, mo‘g‘ul istilosini xalqlar qismatidagi buyuk musibat sifatida baholagan. Holbuki, mualliflarning ba’zilari sharoit taqozosi bilan mo‘g‘ullar xizmatida yurgan va ko‘p hodisalar guvohi bo‘lgan. Masalan, arab tilidagi Abul Fazl ibn Muhammad Jamoliddin al-Qarshiyning “Al-mulhaqt bis surah” (“Suroh lug‘atiga ilovalar”) va fors tilida bitilgan Juvayniyning “Tarixi Jahongusho” (“Jahon fothih tarixi”), Fazlulloh Rashiddinning “Jome at-tavorix” (“Solnomalar to‘plami”), “Shuabi panjona” (“Nasabnoma”), “Nasabnomai muluk” (“Podsholar shajarasi”), Abdulloh Vassofning “Tarixi Vassof” (“Vassof tarixi”) kabi asarlari o‘sha davr haqida to‘liq ma’lumot beradi.

Muhammad Jamoliddin Qarshiyning ma’lumotiga ko‘ra, Chingizxonning Movarounnahrda hujumi 1219-1220-yillarda ro‘y bergan. Muarix bunga sabab Olmaliq xoni To‘g‘rulxon (Buzarxon) va naymanlar yo‘lboshchisi Kuchlukxon Sagiziy o‘rtasidagi adovat ekanini aytadi va ushbu bahona Xorazmshohlar tomon yurishlarini rejalashtiradi. Olmaliq hozirgi G‘ulja va Xitoyning shimoli-g‘arbidagi Ili daryosi qirg‘ida joylashgan Yettisivdagi shahar bo‘lgan. Bu shahar Oltin O‘rdadan Markaziy Osiyo, Mo‘g‘uliston va Xitoyga olib boradigan karvon yo‘lidagi muhim savdo markazi edi.

Muarixning bayoniga ko‘ra, mo‘g‘ullar qatl va zo‘ravonlik yo‘li bilan Xorazmshohlar sulolasiga hujum qilib hijriy 617-yilning muharram oyi (1220-yil mart-aprel)da Movarounnahrni, 618-yil muharram oyining 9-sanasi (1221-yil fevral-mart)da Marvni, o‘sha yili safar oyi (1221-yil mart-aprel)da Xorazmni, safar oyining 16-sanasi (1221-yil 10-aprel)da Hirotni, jumodus soniyning 8-sanasi (1221-yil iyul-avgust)da G‘aznani egalladi. Bunda ko‘p shaharlar ikki-uch va undan ko‘p oy davomida qamalga dosh bergan, ammo oxir-oqibat mag‘lub bo‘lgan.

Chingizxon Xurosondan qaytgach, 624-yil ramazon oyining 10-sanasi (1227-yil 24-avgust)da 72 yoshida vafot etdi.

shimolida yashagan. Keyinchalik Mahmud Yalavoch ham siyosat yuritishda shu qabilalarga suyanib ish ko‘rgan.

Xondamirning ma’lumotiga ko‘ra, Chingizxon o‘limidan so‘ng Chig‘atoy Beshbaliq (Bish-Bolog‘) shahrini poytaxt etib belgilagan. Asosan hukmronligi Olmaliqdagi Il-Alargu (al-Alargu) shahrida o‘tgan. Mituqon, Yisu, Baydar, Sarbon kabi farzandlari bo‘lgan. Chig‘atoyning merosxo‘ri — Mituqon 617 (1220-1221) yilda Bomiyon qal’asi (Kobul, Xulm va Balx o‘rtasidagi tog‘li hududda joylashgan shahar)da otasidan avval vafot etgan. Chingizxon uning uchun qasos olib, qal’ani egallagandan so‘ng bolalar va ozod ayollardan tashqari barcha aholini qatl etishga buyruq bergan.

Boshqaruv tizimi

XIII asr boshlarida Yeke mongol (Buyuk mo‘g‘ullar davlati) ulusi shakllanishi, uning barqarorligini ta’minlash uchun markaziy hokimiyatni barpo etish zarurati paydo bo‘ldi. Ulkan hokimiyatni boshqarish uchun yozma huquqiy normalar va qonunchilikni ishlab chiqish taqozo etildi.



Avvaliga saltanatda mo‘g‘ullarning siyosiy tartibi o‘rnatildi. Bunda Chingizxon oliy sud hokimiyatini joriy etib, uni faqat xoqon va xonga bo‘ysunuvchi tizim etib shakllantirdi. Dastlab oliy sudya etib tayinlangan Shigi Quduqu (yoki Sigi Qutuqu) imperiyaning barcha aholisi ustidan nazorat qilish uchun mas’ul etib tayinlandi. Uning vazifasi keyinchalik vorislari asta-sekin o‘rnatgan mo‘g‘ul sud mashinasi prototipi — yang‘uni ifodalagan. Bu atama mo‘g‘ulcha “jarg‘u” so‘zidan olingan bo‘lib, ish, shikoyat, adolat degan ma’noni anglatadi. Joylarda odil sudlovni viloyat hokimlari va harbiy qism qo‘mondonlari amalga oshirgan. Maxsus sud organi — yarg‘u devoni bo‘lib, unga bosh qozi rahbarlik qilgan. Sud muassasalarining quyi tizimi yarg‘u-chi (sudya)lar boshchiligidagi mahalliy sudlar edi. Ular kichik ishlarni ko‘rib chiqi boshlagan. Keyinchalik mo‘g‘ullar islom dinini asta-sekin qabul qilishi bilan musulmon sudyalari — qozilar Chig‘atoy ulusi boshqaruvidan o‘rin ola boshlagan.

Xonlarning qonunchilik faoliyati natijasi mahalliy hukmdorlarning maktablari, yorliqlari, farmoyishlari edi. Xon amirlarga va mahalliy amaldorlarga yorliqlarni topshirgan. Ularning



sodiqligini nazorat qilish uchun maxsus vakillari — bosqoqlardan foydalangan. Bosqoqlarning vazifasi amirlar faoliyatini uzviy nazorat qilishdan iborat edi. Bunda mo‘g‘ul qonun-qoidalarining ahamiyati katta bo‘lgan, albatta. Qonunlar va qoidalar to‘plami “Buyuk yaso” yoki oddiygina “yaso” deb atalgan.

“Buyuk yaso” Chingizxon tuzugi (qonuni) ning nomi bo‘lib, rivoyatlarga ko‘ra, u 1206-yilda umummo‘g‘ul qurultoyida e’lon qilingan va unga Chingizxonning vorislari qat’iy amal qilgan. Bizgacha na mo‘g‘ulcha asl nusxada, na to‘liq tarjimasi yetib kelgan. Shu bois, bu haqda, asosan, Sharq manbalari, jumladan, Juvayniy, Rashiddiddin, Hofizi Abro‘, Mixrond, Xondamir, Ibn Battuta, Abul Faraj, Maqriyiy va boshqalar asarlari orqali bilamiz.

Yaso va shariat o‘rtasida doimo katta ziddiyat bo‘lgan. Bunga sabab, mo‘g‘ullar, hech bo‘lmaganda islomni qabul qilgunlariga qadar, har qanday hokimiyatni yo‘q qilib, o‘z qonunlari va nasabini oliy etib ko‘rsatish bilan murosaga kelgan. Shunga qaramay, ularning har biri o‘z ta’lir doirasiga ega bo‘lgan va Markaziy Osiyoda asrlar davomida birga qo‘llab kelingan. Chig‘atoy xonlari uchun ikkala tizim o‘rtasidagi muvozanatni topish oson kechmagan. Keyinchalik Chig‘atoy ulusining ba’zi xonlari legitimlik masalasida butunlay islom diniga o‘tib, mahalliy xalq bilan yaqinlashuv yo‘lini tanlagan. Shunday xonlardan biri Tarmashirinxon bo‘lib, Ibn Battutaning so‘zlariga ko‘ra, u yasoning o‘ziga xos tomonlarini bekor qilgan va hatto “eng jirkanch siyosiy tizim” deb belgilagan.

Boshqaruvdagi merosxo‘rlik masalasiga kelsak, Chingizxon vafotidan keyin o‘zini to‘g‘ridan to‘g‘ri uning avlodlari deb tasniflay olmagani kuchli aristokrat urug‘lar eski omil, ya’ni “oltin urug” asosida yuqori hokimiyat uchun o‘z huquqlarini oqlashga intilgan. Qoida tariqasida, ota-bobolariga turmushga chiqqan chingiziy malikalar orqali (ya’ni xonning kuyovi sifatida) hokimiyatga yaqinlikni da’vo qilib, taxtni ko‘zlagan.

XIV asming birinchi choragida mo‘g‘ul vorislari o‘rtasida boshlangan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tufayli ulus tarixida katta burilishlar xususidan, boshqaruv jarayonida islohotlar yuz bergan. Bu vaqtga kelib, Chig‘atoy xonadoni vakillari chingiziy qadriyatlariga qarshi chiqi boshlagan. Ulus hududi kengayishi bilan mamlakat boshqaruvida yangi tizimlar shakllana borgan. Guruhbozlik kuchaygan. Yaso qonuni birmuncha unutilib, ulusda diniy qarashlar yangilangan, ijtimoiy hayot o‘troqlashuv tomon yuz tutgan.

Movarounnahrda ko‘chmanchi zodagonlar qatlami shakllangan. Ular islom dinining o‘troq madaniyatiga tobora ko‘p moshlashsa-da, ko‘chmanchilik qonunlariga ham sadoqat bilan xizmat qilgan. Ularning eng asosiy muammosi ko‘chmanchi yoki o‘troq bo‘lish yoxud islom madaniyatini qabul qilish yoki qabul qilmaslikda emas, balki umuman islom madaniyati va o‘troq jamiyatlar bilan qanday muloqot o‘rnatish hamda o‘troq xalq ustidan nazoratni saqlab qolish haqida edi.

Chig‘atoy ulusining markaziy boshqaruv qarorgohi Olmaliqdan yanada yaqiniga — Qarshiga

(ba’zi xonlar davrida Samarqandga qadar) ko‘chirilgan. Mintaqada islomlashuv jarayoni jadallashgan. Hatto tangalar xon nomiga qo‘shimcha maqovli unvonlar bilan zarb etila boshlagan. Hukmdorlar qurultoylarda qatnashmay qo‘ygan, mahalliy xalq bilan yaqinlashuv yuzaga kelgan. Bu esa yasoga butunlay nomutanosib holat edi.

Bu davrga kelib, imperiya markazida boshqaruv xitoylashuv siyosati tomon o‘zgargan bo‘lsa, Movarounnahr hali-hanuz chingiziylik qonuniyatlar asosida idora etilayotgan edi. Biroq Qaydudan so‘ng bu holat uzog cho‘zilmadi. 1340-yildan boshlab Chig‘atoy ulusida



Movarounnahrda munosabat masalasida qarama-qarshilik kuchaydi. Yettisiv, Sharqiy Farg‘ona va Sharqiy Turkistonning ko‘chmanchi mo‘g‘ullari bilan Movarounnahrda o‘rnashib qolgan jaloyir va barloslar o‘rtasida etnik-madaniy va siyosiy yo‘nalishdagi tafovut kuchaydi.

Chig‘atoy ulusida ko‘chmanchilik qadriyatidan farqli o‘laroq hayot tarzi to‘liq o‘troqlashuv tomon keta boshladi. Yettisiv mo‘g‘ullari Movarounnahr chig‘atoylarini yasa, Chingizxon tuzuklaridan yuz o‘g‘irganlikda, ko‘chmanchi turmush tarzi an’analarga xiyonatda ayblab, ularni “qararunmaslar” (duragaylar — turli irqqlarning aralashmasi) deb atay boshladi. O‘z navbatida, jaloyir va barloslar Yettisivdagi mo‘g‘ullarni qoloq va qo‘pollikda ayblab, “jete”, ya’ni qarochilar deb atadi.

Parchalanishi

Chig‘atoy vafotidan so‘ng bir necha xon chegarani aniq belgilash, kengaytirish, xususiy erkin boshqaruv tizimini shakllantirish, soliqlarni o‘zlashtirish kabi turli siyosiy qarashlar bilan hududiy mustaqillikni ko‘lga kiritishga urinib ko‘rgan. Ulusni nabirasi Qora Xulagu boshqargan, ammo Guyukxonning siyosiy nuqtayi nazari sababli taxtdan olinib, o‘miga amakisi Yesu Munke ibn Chig‘atoy xon etib ko‘tarilgan. Guyukxon vafotidan so‘ng Qora Xulagu yana taxtga qaytgan. So‘ng farzandi Muborakshoh, O‘rkina Xotun, Olg‘u, Baroqxon, Niqboy, Bug‘o Temur, Duvaxon kabilar o‘z davrida har qanday yo‘l bilan bo‘lsa-da ulus boshqaruvini to‘lalgigacha qo‘lga olishga uringan.

Siyosiy hududlar bir qisqarib, bir kengaygan. Biroq Kebeixon hukmronligiga qadar siyosiy holat barqaror bo‘lmagan. Undan so‘ng taxtni inisi Tarmashirin boshqargan. Uning davriga kelib, ulusdagi boshqaruv butunlay o‘zgarib ketgan. Boshqaruvda yaso inkor etilib, hokimiyat mahalliy prinsiplarga tayangan holda o‘ziga xos yangicha ko‘rinishda idora etilgan. Tarmashirindan so‘ng ulus goh Chig‘atoy, goh O‘qtoy vakillari ko‘lga o‘tib turgan. Chig‘atoy ulusi so‘nggi xoni Qozonxonga suiqasd natijasida ulus inqirozga uchrach, davlat sharqiy va g‘arbiy qismlarga bo‘linib ketgan. Keyinchalik Tug‘luq Temurning mamlakati birlashtirishga qaratilgan sa’y-harakati natija bermagan. Chig‘atoy ulusidagi bu kabi to‘xtovsiz tashqi va ichki urushlar sabab saltanatning Xitoy iqtisodiyotiga qiziqishi ortgan. Hindiston orqali yasa aylanma yo‘li ochilishi esa Chig‘atoy ulusining iqtisodiyotiga qattiq zarba bergan. Bu esa mo‘g‘ullarning Movarounnahrda boshqaruvi parchalanishiga olib kelgan.

Sanjar BEKMURODOV,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
katta o‘qituvchisi, erkin tadqiqotchi

Shahrizoda HAZRATQULOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Prezidentimizning xorijiy davlatlarga tashrifini har safar diqqat bilan kuzataman. Tashrif davomidagi muzokaralar va ularning natijalaridan shu mamlakat fuqarosi sifatida quvonaman. Chunki imzolangan hujjatlar va ular asosida mamlakatimizga kiritiladigan investitsiyalar yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi uchun muhim ahamiyat kasb etishini yaxshi bilaman. Qolaversa, bu farovonlik butun xalqimiz qatori mening ham hayotim va taqdirimga ijobiy ta’sir ko’rsatishini chuqur anglayman.

G’URURLANDIM, HAVAS QILDIM

Davlatimiz rahbarining AQSHga bu galgi tashrifi tom ma’noda tarixiy ahamiyatga ega bo’ldi. Binobarin, tashrif davomida erishilgan natijalar shu qadar ulkan, salmoqliki, butun dunyo havas qildi, desak yanglishmaymiz. Buni AQSH Prezidenti Donald Trump ham Prezidentimiz bilan muloqot chog’ida alohida ta’kidladi. Xususan, Uzbekistan Airways bilan Boeing korporatsiyasi o’rtasidagi kelishuvga muvofiq, O‘zbekiston 8 milliard dollardan ortiq mablag’ evaziga 22 ta Boeing 787 Dreamliner samolyotini xarid qilishini mamnuniyat bilan qayd etdi. Bu AQSHda 35 mingdan ziyod ish o’rni yaratish imkonini berishini Truth Social ijtimoiy tarmog’ida ham yozdi.

Darhaqiqat, Prezidentimiz Nyu-Yorkka tashrifi davomida AQSHning yigirmadan ziyod korporatsiya va banklari rahbarlari bilan uchrashdi. Muzokaralarda o’zaro hamkorlik masalalari va ularning kelajagi



muhoqama qilindi. Natijada fuqaro aviatsiyasi, energetika, innovatsiyalar, tog’-kon sanoati, kimyo, moliya va boshqa ko’plab sohalar bo’yicha shartnomalar va istiqbolli loyihalar shakllantirildi.

BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi tadbirlari doirasida Prezidentimiz qator xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan uchrashdi. Uchrashuvlarda hamkorlik istiqbollari ko’rib chiqildi.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasidagi nutqida mintaqaviy va global ahamiyatga ega dolzarb masalalar yuzasidan nihoyatda muhim takliflarni ilgari surdi. Bu takliflar xalqaro tashkilot sessiyasi qatnashchilari tomonidan mamnuniyat bilan kutib olindi. Bir qarashda men keltirayotgan fakt va misollar takror tuyulishi mumkin. Lekin yuqoridagi qayd etganimek, ular keltiradigan natija va samara barchamiz uchun manfaatli. Shuning uchun ham bu haqda fikr bildirishni zarur deb hisoblayman. Binobarin, bular butun mamlakatimiz aholisi qatori meni ham juda quvontirdi. Shunday tabarruk zaminda tug’ilganimdan, shunday ulug’ xalqning farzandi ekanimdan qalbm faxr-iftixor bilan to’lib-toshdi.

O’rmi kelganda yana bir gapni aytmochchiman: o’zim AQSHning Vebster universitetini bitirganman. Shu bois, Prezidentimizning uchrashuvlari va BMT Bosh Assambleyasi sessiyasi ishlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali katta qiziqish bilan kuzatib bordim.

Davlatimiz rahbarining Nyu-Yorkka tashrifi so’ngida AQSHda ishlayotgan va istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz hamda “El-yurt umidi” jamg’armasining ushbu mamlakatdagi nufuzli universitetlarda tahsil olayotgan stipendiatlari bilan uchrashuvini kuzatib, juda quvondim, hayajonlandim. Mamlakatimizda yosh avlodga yaratilgan imkoniyat va sharoitlar tufayli minglab o’zbek yoshlari xorijiy davlatlar universitetlarida o’qimoqda. Birgina AQSHda bugun

500 dan ziyod o’zbek yigit-qizi tahsil olayotgani qanday yaxshi! Ochig’i, ularga havasim keldi va ta’limning magistratura bosqichini AQSH universitetlaridan birida o’qishni niyat qildim.



MILLIY AN’ANALAR MEZONI QAYERDA?

Bir necha oy muqaddam vohaning chekka bir qishlog’ida kamtarona, ammo nihoyatda fayzli to’yda mehmon bo’ldik. U yerda na dabdabali to’yxona, na dabdabali mashinalar bor edi. Kuyovning hovlisida, uzum ishkamlari ostida yozilgan dasturxon atrofiga eng yaqin qarindoshlar, qo’ni-qo’shnilar jam bo’lgandi. Dasturxonga ham o’n besh xil salat emas, balki o’zimizning milliy taomlarimiz, sarxil, yangi uzilgan meva-sabzavotlar tortilgandi. Hech kim bir-birining kiyimiga yoki taqinchog’iga e’tibor bermas, aksincha, hammaning diqqati yosh kelin-kuyovga, ularning ota-onalariga qaratilgan. U yerda ortiqcha isrofgarchilik va soxta takalluflardan xoli bo’lgan samimiy muhit hukmron edi. Eng muhimi, yoshlarning yuz-ko’zidagi baxtiyorlik, ota-onalar chehrasidagi xotirjamlik har qanday hashamatdan ustun turardi. Ana o’shanda to’yning fayzi uning qanchalik qimmat o’tganida emas, balki qanchalik samimiy va xolis niyatlar bilan o’tkazilganida ekaniga yana bir bor amin bo’ldim.

Xalqimizning azal-azaldan to’y-tomoshaga, tantanaga o’chligi bor gap. Bir piyola choy ustidagi gurgundan tortib, uzoq kutilgan farzandning dunyoga kelishigacha bo’lgan har bir shodiyonani o’zgalar bilan baham ko’rish, dasturxon yozib, elga osh berishni qon-qonimizga singib ketgan ezgu fazilat deyishdan boshqa imkonimiz ham yo’q. Bularning ichida nikoh to’ylari alohida o’rin egallaydi. U nafaqat ikki yoshning baxt ayyomi, ayni paytda oilalarning quvonchi, urug’-aymoqlar diydorlashuvi hamda mahalla-ko’yning birdamligini namoyon etuvchi muhim ijtimoiy hodisa hamdir. Aslida, tarixan ham to’ylarimiz jamoaviylikni mustahkamlaydigan, ijtimoiy aloqalarni bog’laydigan, yoshlarga esa oila muqaddasligini uqtiradigan muhim institut vazifasini o’tagan.

Undagi har bir udum zamirida o’ziga xos ijtimoiy-tarbiyaviy merosiylik yotadi. Bu an’analar zamirida muayyan ma’no, ajdodlardan avlodlarga o’tib kelayotgan chuqur hikmat mujassam. Biroq achinarlisi shundaki, ayniqsa, oxirgi yillarda ana shu muqaddas an’ananing asl mohiyatiga putur yetib, uning o’rnida soxta obro’, manmanlik va isrofgarchilik kabi illatlar urchib bormoqda. Asl qadriyatlarimiz izini “trendlar”, samimiyat o’rnini esa soxta savlat egallayotgani, albatta, tashvishlidir.

Nafaqat poytaxtimizda, balki vohayu vodiylarda ko’plab to’y marosimlarida ishtirok etishga va ularni kuzatishimizga to’g’ri keladi. Har gal deyarli bir xil manzaraga guvoh bo’laman: bir-biridan hashamatli to’yxonalar, yuzlab dollarlik kelinlik liboslari, o’nlab qimmatbaho avtomobillardan iborat karvonlar, falon pulga taklif etilgan “yulduzlar” va eng achinarlisi, uvul bo’layotgan noz-ne’matlar. Yaqinda bir tanishimning to’yida dasturxonga o’n xilga yaqin salat, bunga qo’shimcha besh turdan ziyod issiq ovqat ham tortildi. Yarim tungacha davom etgan bazmdan so’ng stollarga qarab, negadir dil ezilar ekan. Taomlarning yarmidan ko’piga, salatarning esa deyarli to’rtidan uch qismiga hech kim qo’l urmagan edi. Ofitsiantlar yarimlagan laganlarni yig’ishtirib olayotganida xayolimdan bir fikr o’tdi: axir shu yerdagi birgina stolning xarajatiga bir talababning bir yillik kontrakt to’lovini bemalol to’lash mumkin edi-ku. Xuddi shunday an’analar muhitida o’sib-ulg’aygan mening xayolimga bunday iqrar qayerdan keldi, bilmayman.

“Ko’z-ko’z qilish”, “birovdan kam bo’lmalik” istagida uyushtirilgan o’sha kechaning o’zida qancha oilaning bir necha oylik rizqi sovurildi-ya! Bu holatni hech qanday vaj bilan oqlab bo’lmaydi. Qolaversa, endilikda to’ydan avvalgi va keyingi “mayda” tadbirlar ham dabdaba bobida asosiy marosimdan qolishmaydigan darajaga yetgan. “Love story” deb ataluvchi videoroliklarni suratga olish maqsadida tog’u toshlarga, hatto chet ellarga borishlar, bir necha kunlab davom etadigan fotosessiyalar, “oqshom libosi” va “ertalabki libos” kabi tushunib bo’lmas sarf-xarajalar odatiy holga aylanib bormoqda.

Boshqa bir viloyatda esa “kuyov navkar” degan yangi bir dabdabali “udum”ga guvoh



Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“oyog’ini ko’rpasidan tashqariga uzatishga” majbur bo’lmoqda. Bunday holat esa jamiyatda nosog’lom raqobat muhiti shakllanishiga va moddiyatchilik kayfiyati avj olishiga olib keladi. Odamlar bir-biriga inson sifatida emas, balki ijtimoiy mavqei, moliyaviy imkoniyati nuqtayi nazaridan baho bera boshlaydi. Natijada “odamlar nima deydi?” degan doimiy xavotir ostida yashash va aslida o’ziga to’g’ri kelmaydigan hayot tarzini sun’iy ravishda ko’z-ko’z qilish psixologiyasi shakllanib boradi. Bu illat, ayniqsa, ayvollarimiz, qizlarimiz orasida chuqur ildiz otmog’da. Qiz tomonning sep yig’ish tashvishi bir necha yil avvaldan boshlanadi. “Qo’shning qiziga olib berilgan meval yoki



Uchinchi Renessans ostonasida turgan xalq sifatida biz yuksak ma’naviyat, teran tafakkur va bunyodkorlik g’oyalarni bayroq qilib, kelajagimiz egalari bo’lgan yoshlarga moddiy boylikdan ko’ra mustahkam oila, sog’lom muhit va eng asosiysi, to’g’ri tarbiya berish haqida ko’proq qayg’urishimiz darkor. Zero, millatning ertangi kuni uning bugungi ma’naviy kamolotiga bevosita bog’liq.

gilamdan kam bo’lmisligi kerak”, degan andisha ota-onaning tinka-madorini quritadi. Aslida esa qiz bolaga berilishi kerak bo’lgan eng katta sep — uning bilimi, odobi, hunari va hayotga tayyorgarligidir. Zero, insonning qadr-qimmatini uning qanday to’y qilgani bilan emas, aksincha, ma’naviyati va jamiyatga keltirayotgan foydasi bilan o’lchanmog’i lozim.

Ayniqsa, xalqimiz oldiga Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ulug’vor maqsad qo’yilgan bugungi pallada bunday illatlarning jamiyatimizda ildiz otib yashayverishiga befarq qarab bo’lmaydi. Tarixga nazar tashlaydigan bo’lsak, har ikki Renessans davrida ajdodlarimiz ma’naviy yuksalishga intilgan. O’sha davrlarda ilm-fan, madaniyat va san’at gullab-yashnagan,